

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
FILOLOGIYA FAKULTETI
O'ZBEK FILOLOGIYASI KAFEDRASI
IV KURS KUNDUZGI BO'LIM BITIRUVCHISI

_____NING

“Maqsud Shayxzoda - serqirra ijod sohibi”

mavzusidagi

**5220100 – Filologiya (o'zbek filologiyasi) yo'nalishida bakalavr
ilmiy darajasini olish uchun yozgan**

MALAKAVIY BITIRUV ISHI

(2015-2016 - o'quv yili)

Ilmiy rahbar: filologiya fanlari nomzodi,
dotsent _____

Buxoro - 2016

Reja:

Kirish

I bob

Maqsud Shayxzoda - serqirra ijod sohibi.

I..01.Maqsud Shayxzodaning ilmiy faoliyati:

- a) xalq og'zaki ijodi tadqiqotchisi;**
- b) qardosh xalqlar adabiyotiga munosabat;**
- d) bugungi adabiyot Maqsud Shayxzoda nazarida.**

I. 02. Maqsud Shayxzoda - mumtoz adabi yot tadqiqotchisi.

- a) Sharq adabiyoti tarixi masalalari va ularning xususiyatlari.**
- b) Bobur ijodiyoti;**
- d) Muqimiy va Furqat ijodiyoti.**

II bob

Alisher Navoiyning adabiy merosi Maqsud Shayxzoda talqinida.

II.01. Shoirning lirik merosiga munosabat.

II.02. Shoirning epik merosiga munosabat.

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Ishning umumiy tavsifi

Kirish

Mavzuning o`rganilishi va dolzarbligi. Yurtimiz uzra mustaqillik shabadasi esayotganiga ham mana yigirma besh yil bo'lyapti. Istiqlolga erishgan xalqimizning o'z yurti, tili, madaniyati, qadriyatlari, tarixini bilishga, o'zligini anglashga qiziqish ortmoqda, vatanimizni butun jahon tan olmoqda.

Barchamizga ma`lumki, bu qadimiy va tabarruk tuproqdan buyuk allomalar, siyosatchilar, sarkardalar yetishib chiqqan. Jahonga Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Ismoil al-Buxoriy, Xoja Ahmad Yassaviy, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Mir Alisher Navoiy, Mirzo Bobur kabi buyuk siymolarni bergan millatning madaniyati, urf-odati, umuman, ma`naviyati boshqa xalqlarnikidan butunlay farq qiladi. Bunday donishmandlar qoldirgan moddiy va ma`naviy meros nafaqat o'z xalqimiz, balki butun jahon xalqlari tomonidan ham tan olingan. Shunday ekan, Sharq xalqlarining, jumladan o'zbek xalqining huquqiy-axloqiy, tarbiyaviy madaniyatining poydevori nihoyatda pishiq, ildizlari mustahkam ekanligiga shubha yo'qdir.

Har bir xalq adabiotini eng yuqori cho'qqilarga ko'taradigan daho san`atkorlar bo'ladi. Bu daho zotlar ro'yobga chiqargan bemisl ishlar, ular yaratgan o'lmas asarlar hamon o'zlari mansub bo'lgan xalqning zakovatini dunyoga tanitib, butun insoniyatning ongini yoritib, qalbi va tafakkuriga kuch-quvvat, qudrat bag'ishlab kelmoqda.

Ularning merosini tadqiq qilish, o'rganishdek sharaflı va ayni choqda mashaqqatli ishga har kim ham bel bog'lay olmaydi. Buning uchun ham kishida o'ziga xos bilim, zakovat, did va farosat, fikrni to'g'ri anglay bilish salohiyati bo'lmog'i lozim. Zero, mana shunday daqiqbin va nozikfahm tadqiqotchigina o'z ishi bilan daho zotlar va xalq orasida yaqinlik paydo qila oladi. Nuktadan olimlarning sa'y-harakati tufayli ham ulug' zotlarning asarlari umriga yangicha umr qo'shiladi.

Ma`lumki, Alisher Navoiyga qiziqish, unga munosabat bildirish u hayot bo'lgan yillardayoq boshlangan edi. Ulkan allomaning buyukligini badiiy

ifodalovchi qasida va marsiyalar ijod qilindi. Alisher Navoiyga izdoshlik qilish, undan o'rganish, ustoz sifatida tan olish, asarlariga nazira va muxammaslar bog'lash, lug'atlar yaratish, uning shohbayt va ktoblarini boshqa tillarga o'girish singari turli xil yo'nalishlarda davom etdi. Bir so'z bilan aytganda, ulug' shoir hayot chog'idayoq navoiyshunoslikning debochasi qo'yilgan edi.

Alisher Navoiy adabiy merosini o'rganish va keng miqyosda tadqiq etish ilmdagi uzluksiz davom etadigan bir jarayondir. Alisher Navoiy tom ma'nosi bilan serqirra iste'dod sohibidir. Ulug' mutafakkir shoir ijodiyotini turli tomondan o'rgangan, xususan, Y.E.Bertels, H.Zarif, P.Shamsiyev, H.Sulaymon, M.Shayxzoda, Oybek, A.Hayitmetov, V.Zohidov, A.Abdug'ofurov, N.Mallayev, Sh.Sharipov, A.Rustamov, Y.Is'hoqov, S.G'aniyeva, N.Komilov, R.Vohidov, I.Haqqul kabi olimlarning tadqiqotlari tahsinga sazovordir.

Biroq, bular orasida Maqsud Shayxzoda alohida ajralib turadi. Biz Maqsud Shayxzodani ulkan shoir, barkamol dramaturg, ustoz muallim, yetuk olim va publisist, mohir tarjimon sifatida yaxshi bilamiz. Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, Maqsud Shayxzoda ijodining asosiy qismini adabiyotshunoslik, xususan, navoiyshunoslik tadqiqiga bag'ishlagan.

Mavzuning maqsadi va vazifalari. Adibning yuqorida sanab o'tilganidek, serqirra ijod sohibi ekanligi adabiyotshunoslar tomonidan yetarlicha o'rganilgan bo'lsa-da, lekin uning navoiyshunos olim ekanligi alohida tadqiq etilmagan. Shuning uchun ham ushbu malakaviy bitiruv ishda Maqsud Shayxzodaning navoiyshunosligi uchun mutafakkir Alisher Navoiy ijodini qanday o'rganganligi va naoiyshunoslikka qanaqa hissa qo'shganligi masalasini o'rganish asosiy maqsad qilib olindi. Maqsadni amalga oshirish uchun esa quyidagi vazifalarni amalga oshirish ko'zda tutildi:

- Maqsud Shayxzodani serqirra ijodkor sifatida o'rganish;
- Maqsud Shayxzodaning ilmiy faoliyati bilan yaqindan tanishish;
- xalq og'zaki ijodi, qardosh xalqlar adabiyoti, zamonaviy adabiyotga Maqsud Shayxzodaning munosabatini yoritish;
- Maqsud Shayxzoda mumtoz adabiyot tadqiqotchisi ekanligini o'rganish;

- Maqsud Shayxzoda talqinida Navoiyning adabiy merosi masalasini izchil tadqiq qilish;
- Alisher Navoiyning lirik merosiga Maqsud Shayxzodaning munosabatini ko'rsatish;
- Maqsud Shayxzodaning Alisher Navoiy epik asarlariga bo'lgan munosabatini yoritish;
- navoiyshunoslikka Maqsud Shayxzodaning qo'shgan hissasini aniqlash.

Ishning metodologiyasi va metodi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning milliy madaniyat va ma'naviyatni rivojlantirish, an'anaviy qadriyatlar tizimini tadqiq va targ'ib etish borasidagi nazariy mulohazalari dissetatsiya ishining metodologik asosini tashkil etadi. Milliy istiqlol mafkrasi, rkyzidynt I.A.Kakimovning Alishy Navoiy mykosiga doiq dono ko'qsatmalaki, mrmtoz shy'kshfnoslaq A.Fitkat, M.Shayxzoda, I.Srlton, N.Ma llayyv, A.Hayitmytov, F.Valicho'jayyv, K.Vohidov, I.Haqqrlovlaqning adaaiyotshfnoslikka oid qaqlashlaqi MFI fchfn tayanch ilmiy-nazaqi asos fio'lii qizmat qildi.

Ishning ilmiy- nazariy va amaliy ahamiyati. Ushbu ishning nazariy xulosalari va natijalaridan oily o'quv yurtlarida, akademik litsey va kollejlarda o'zbek mumtoz adabiyoti bo'yicha maxsus kurslar o'tishda darslik, o'quv qo'llanmalari, lug'atlar tuzishda foydalanish mumkin. Bu esa ishning amaliy ahamiyatini belgilaydi.

Tadqiqot manbasi. Ishni amalga oshirishda Maqsud Shayxzoda tanlangan asarlarining 4- tomi (Toshkent, Adabiyot va san`at nashriyoti, 1972 yil) asosiy manba sifatida olindi. Shuningdek, serqirra ijod sohibining boshqa ilmiy va badiiy asarlariga ham murojaat qilindi.

Ishning joriylashuvi va tuzilishi. Ishning asosiy mazmni Ff4DF rkyfyssoq-o'qitrchilaqining 60-an'anaviy ilmiy anjrfmanida б а ё н қ и л и н г а н .

Malak aviy bitiruv ishi kirish, ikki bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I bob

I.01. Maqsud Shayxzoda - serqirra ijod sohibi

Yigirmanchi asr o'zbek adabiyotining taniqli vakili, serqirra ijod sohibi Maqsud Shayxzoda 1908-yil Ozarbayjonning Oqtosh shahrida tavallud topgan. Dastlabki ma'lumotni Oqtoshdagi maktabda olgan. U 1925-yildan boshlab muallimlik qilgan. Ayni vaqtda, Boku oliy pedagogika institutini sirtidan o'qib bitirgan.

1925-yilda millatchi sifatida ayblanib, ustidan jinoiy ish qo'zg'atilgan, bo'lajak shoir Kavkaz ortidan chiqarilib yuborilgan.

Taqdir shoirni minglab tengqurlari singari hayot dengizining asov to'lqinlari qa'riga tashladi. Yigirma yoshida bu to'lqinlar uni qardosh O'zbekiston tuprog'iga keltirdi. Buyuk Navoiyning, Ulug'bekning muqaddas vatani Maqsud Shayxzodani o'z farzandidek mehribon quchog'iga oldi va uning ulkan shoirlik iste'dodiga qo'sh qanot baxsh etdi **(II,40:13)**.

Maqsud Shayxzoda o'zbek tili va san'atini, o'zbek adabiyotini astoydil muhabbat bilan o'rgandi. Bu qadim, boy madaniyat chashmasidan bahramand bo'lib, ko'ngillarga quvonch bag'ishlovchi barkamol asarlar yaratdi. O'z davrida uning "O'n she'r" (1932), "Undoshlarim" (1933), "Uchinchi kitob" (1934), "Jumhuriyat" (1935) to'plamlarining nashr etilishi adabiyotga o'ziga xos obrazli shoir kirib kelayotganligidan darak bergan bo'lsa, "Kurash nechun" (1941), "Jang va qo'shiq" (1942), "Kapitan Gastello" (1941), "Ko'ngil deydi" kabi she'riy to'plamlari, "Jaloliddin Manguberdi" (1944) tarixiy dramasi, 300 dan ortiq ilmiy-publisistik asarlarining chop etilishi uni serqirra ijod sohibi sifatida elga tanitdi **(II, 39:3)**.

Bundan tashqari, adibning ko'hna va ayni chog'da navqiron Toshkent shahriga bag'ishlangan, uning tarixi, o'tmishdagi madaniyati va xalqaro aloqalarini tasvirlovchi "Toshkentnoma" (1958) lirik dostoni, "Mirzo Ulug'bek" (1960) tragediyasi adabiyot olamida o'ziga xos o'rin va yuksak mavqega sazovor bo'ldi.

Maqsud Shayxzoda ijodiy faoliyatida kelgan bir misra sheʼrdan tartib dostongacha, balladadan tortib sheʼriy dramalarga qadar barcha asarlarda falsafiy mushohadaning teranligi, qoʻyilgan muammoni yechishdagi mantiqiy izchillik, tuygʻularning samimiyligi, fikrning parvozi va uslubning muayyanligi kabi aʼlo xislat va noyob fazilatlari tufayli oʻziga xos ahamiyat kasb etadi.

Shoir inson ruhini tarbiyalash, odamda yaxshilik unsurlarini koʻpaytirish, xalqqa goʻzallik va nafosat tuygʻusini yanada baland darajada koʻtarishni sanʼatning muqaddas vazifasi deb biladi va bu muqaddas vazifaga oʻrtoqlari qatorida oʻzi ham bir qatra hissa qoʻshgan boʻlsa, demak, dunyoda behud yashamabman deb hisoblaydi.

Maqsud Shayxzoda qoldirgan merosni elimizning badiiy tarixi, adabiy qomusi, mujassam lirik yonishi deyish mumkin. Ana shu ijod sahifalarini birma-bir varaqlar ekanmiz, ilhom parisi Maqsud Shayxzodaga hamisha sirdosh, oshno boʻlganligiga amin boʻlamiz.

Darhaqiqat, shoir muttasil ijodiy mehnat dardi va izlanish zahmati bilan umr kechirdi. Uning taʼbiricha:

Kunlarimni oldim yelkaga,
Bordim karvon bilan yoʻlimdan.
Kunlar ortdi, uzaydi boʻyim,
Soz suhbatim mavzui emas,
Kishilikdir oʻylagan oʻyim, -

degan gʻoyalari uning butun ijodiy faoliyati uchun asosiy mezon boʻldi.

Maqsud Shayxzoda sheʼriyati, dostonlari, uning dramatik va ilmiy asarlari yozilgan. Lekin, bizningcha, yozuvchi asarlari, uning ijodi haqida yana ham aniqroq va kengroq tasavvur beruvchi tanqidchi va tadqiqotchi bu yozuvchining oʻzi boʻlsa kerak.

Badiiy soʻzning hikmatini butun vujudi bilan his etgan va uning inson maʼnaviy olamiga taʼsir qudratini teran anglagan, shu boisdan oʻziga ham, boshqalarga ham qatʼiy talabchan boʻlgan shoir: "Sheʼr bilan nasr orasidagi farqni shoirlarimiz ham, tanqidchilarimiz ham sinchkovlik bilan aniqlab olmaganlaricha

"adab bozorida" so'lg'in va yovg'on baytlar haqiqiy yurak poeziyasiga g'ov bo'lib turg'usidir", degan fikrni qayta-qayta takrorlar edi. Shoirning bu oqilona o'g'it-nasihati adabiyotimizning yosh avlodi uchun saboq bo'lishi kerak.

Shoir degan ediki:

She`riyat dunyosin shoirlarimiz,
Har uy, har ko'ngilga baytlar bo'lsin yor!
Elga dastyor bo'lsa she`rlarimiz -
Demakki, umrimiz o'tmabdi bekor! **(II,39:5).**

Ha, badiiy tafakkur mulkining chin sohiblari hech qachon qarimaydi. Aksincha, ular yaratgan bebaho xazina oradan vaqt o'tgach sari o'zining yangidan-yangi qirralarini namoyon qiladi hamda adabiyotshunos olimlar tomonidan tadqiq etiladi.

Yuqorida Maqsud Shayxzoda ijodiyoti haqida adabiyotshunoslik va tanqidchilikda qator ishlar qilinganligini ta`kidlab o'tdik. Bular ichida filologiya fanlari doktori kandidatlari N.M.Mallayev, O.Sharafiddinov, H.Olimjonova, M.Zokirov singari olimlarning qator maqolalari va kitoblarida qilingan tahlillar ajralib turadi.

Maqsud Shayxzoda ijodiga chuqur hurmat va ehtirom bilan yozilgan bu ishlarda uning adabiyotimizda tutgan o'rni belgilab beriladi va shoir ijodining asosiy bosqichlari yoritib o'tiladi **(II,46:4).**

Professor N.M.Mallayev Maqsud Shayxzodaning ijodiy faoliyati haqida quyidagilarni ta`kidlaydi: "Maqsud Shayxzoda nihoyatda hozirjavob, chinakamiga xalq shoiri edi. U hayot poeziyasini chuqur his va idrok etar, voqelikning eng muhim jihatlarini tez payqab olar, o'zini doimo keng omma ichida ko'rar, xalqning turli toifalari bilan inoqlashib ketar, ular bilan til va dil topa olardi.

Darhaqiqat, shoir hayot qonuniyatlarini teran anglab, ularni badiiy hal qilishga intiluvchi so'z san`atkoridir. Uning she`riyati bilan tanishar ekanmiz, ularda ifodalanga qisqagina fikrda falsafiy lirikaning mohiyati ochilganday ko'rinadi. Shoir she`rlaridagi ehtiros to'la baytlar va quyma misralar qalblarda chuqur iz qoldirib, ko'tarinki kayfiyat bag'ishlaydi.

Shuning uchun ham, Maqsud Shayxzoda ijodi o'lmas. Uni inson ruhiy olamining to'laqonli, hamisha boyib mukammallashib boruvchi qomusidir, desak xato qilmaymiz. Bu qomusda oydin kechalarning rassomona tasviri, sevinch va qayg'u shiddatlari, kurash va yengish ilhomlari, kishilarning jasoratli ishlari - barchasi yuksak ijodiy mahorat bilan ko'zga tashlanib turadi. Shuning uchun ham adibning qalamidan bunyodga kelgan qutlug' adabiy obidalar o'zbek adabiyotida o'ziga xos o'rin egallay bilgan. Bu fikrlarimizga ustozning ijodi to'la kafil (II,40:62).

I .01 a) Maqsud Shayxzodaning ilmiy faoliyati

Xalq og'zaki ijodi tadqiqotchisi

Maqsud Shayxzoda nafaqat yetuk ijodkor, balki chuqur bilimli tadqiqotchi ham edi. Uning adabiyotshunoslik sohasida qilgan xizmatlari beqiyosdir. U 1935-1938 yillarda Til va adabiyot institutida ilmiy xodim, 1938-yildan umrining oxiriga qadar Nizomiy nomidagi pedagogika institutida "O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi" kafedراسи dotsenti, mudiri sifatida faoliyat olib borgan. Bu yillar mobaynida Maqsud Shayxzoda ijodiy ishlar bilan bir qatorda chuqur va jiddiy ilmiy tadqiqotlar ham yaratgan. Qanchadan-qancha tolib-u ilmlarga adabiyot sirlarini o'rgatgan. Ulug' olimning nazaridan adabiyotshunoslik, adabiyot tarixiga doir bir masala chetda qolmagan. Maqsud Shayxzoda o'zbek adabiyotining xalq og'zaki ijodidan tortib, zamonaviy adabiyotgacha bo'lgan davrini adabiy jarayon, tur va janrlar, badiiyat masalalarini atroflicha tadqiq qilgan.

Iste'dodli olimning mumtoz adabiyot, xususan, Alisher Navoiy ijodiy merosi tadqiqiga bag'ishlangan ishlari haligacha o'z qiymatini yo'qotmagan. Ular o'zining ilmiyligi bilan ajralib turadi va bu bizga keng ma'lumot berib, tadqiq qilish usullarini o'rgatadi.

Dastlab, Maqsud Shayxzodaning xalq og'zaki ijodiga doir tadqiqotlariga e'tibor qaratib, uning folklorshunoslik faoliyati xususida fikr yuritsak.

Maqsud Shayxzoda xalq og'zaki ijodini atroflicha o'rgangan. 1941-yilda Fozil Yo'ldosh o'g'lidan yozib olingan "Shirin bilan Shakar" dostonini nashrga tayyorlagan.

Olim bu dostonni nashrga tayyorlash bilan birga unga kattagina so'z boshi ham yozadi. So'z boshidagi maqolada dostonning g'oyaviy-badiiy xususiyatlari, obrazlarini har jihatdan sinchiklab tahlil qilib beradi. Shu vaqtgacha mutlaq salbiy obraz tamg'asi bosilgan deb personajiga yangicha talqin beradi.

Maqsud Shayxzoda Sharq mifologiyasi va shu jumladan, o'zbek folkloriga badiiy xazina bo'lgan xalq mifologiyasini alohida tekshirish juda katta bir vaqt va ilmiy tayyorgarlikni talab qilishini o'z vaqtidayoq to'g'ri ta'kidlagan edi. Qizig'i shundaki, ko'p yillar davomida obrazi bizning folklorshunosligimizda sharhlanmay kelindi. Davomida obrazining vazifasini ko'pchilik hozirgacha manfiy, yomonlik ramzi sifatida anglaydilar. Maqsud Shayxzoda bu obrazni har bir asardagi voqealar yo'nalishiga qarab baholash zarurligini, davomida ko'p holatlarda insonning yovuz dushmani emas, aksincha yechilishi mushkul tilsimlar sirini ochib, odamzodga qudratli ko'makdosh sifatida talqin etilganligi haqida ilk marta dadil fikr aytdi, o'z fikrini eposlaridan olingan xarakterli dalillar bilan isbot qildi. Bundan tashqari, u "Shirin bilan Shakar" dostonining bir xususiyatini alohida uqtirib o'tadi: "... qo'limizdagi bu doston ma'lum bir afsonaviy asardir. Haqiqatan ham bu dostonda tarixchi-etnograf uchun o'rganishga sazovor birmuncha ma'rifiy va etnografik ma'lumotlar topish mumkin. Bu dostonni o'qish bilan o'quvchi ham eski urushlarning texnikasini, urush oldidan o'zbeklarda polvonlarning chiqib bahslashuvlarini, urushda yengilgan lashkarlarning bizning zamonamizda bo'lganiday, qilichlarni taslim qilmasdan, balki o'z bo'yinlariga olganlarini, ko'pkari-uloq chopishning kelib chiqqanligi haqidagi materiallarni, burungi feodallardagi jazolash usullarini / jallodlar gunohkorlar qo'lini oldiga bog'lagandan keyingi o'zining mutlaqo o'lajagini bilar va yana birmuncha an'analarni, qiziq ilmiy ham ruhiy xususiyatlarini tekshirib borishi mumkindir. Zotan, yaxshi, go'zal, badiiy bir doston boshqacha turli bo'lolmaydi. U qancha xayoliy, afsonaviy

bo'lmasin, mutlaqo ma'lum tarixiy bir davrning real chiziqlarini o'ziga singdirib olishi tabiiydir"(II,37:197).

Ma'lumki, xalq og'zaki ijodi asarlari tildan-tilga, avloddan-avlodga o'tib keladi. Natijada bu asarlar turli o'zgarishlarga uchraydi, ma'lum tarixiy sharoitgagina xos bo'lgan ayrim o'rinlari tushib qoladi, yangi voqea va qarashlar kirib keladi. Binobarin, ayrim xalq og'zaki ijodi asarlarida, ayniqsa, doston va ertaklarda, turli tarixiy sharoitga oid voqealar, urf-odatlar, fikr va qarashlar aks etganini ko'ramiz.

"Alpomish" ham shunday asralardan biridir. Ham mazmuni, ham shakli jihatidan xalqchil bo'lgan "Alpomish" o'zida xalqning og'zaki poeziyasidagi she'riy qoidalarni, shakllarni, usullarni o'ziga xos ravishda o'zlashtirib olganini ko'ramiz. Shuning uchun ham adabiyot tarixi bilan qiziquvchi tadqiqotchi bu ulkan badiiy meros xususida ma'lum tasavvur va xulosalarga kelmay turib, adabiy jarayon, shakl va usullarning, obraz badiiyatining taraqqiyoti to'g'risida chuqur fikr-mulohaza yuritishi amri maholdir.

Maqsud Shayxzoda 1956-yilda "Alpomish" dostonidagi ba'zi bir poetik xususiyatlar haqida tadqiqot olib borar ekan, bu dostonning vazni, badiiyati, g'oyaviy-badiiy xususiyati, mazmuni, obrazlar olami xususida keng ma'lumot beradi. Jumladan, "Alpomish" dostonining ritmik negizi sillabik sistema ("hijo vazni yoxud barmoq vazni") ekanligi, bu vazn turkiy tillarda so'zlovchi barcha xalqlarning og'zaki poeziyasiga xos bir vazn bo'lib kelganligini aytib o'tadi. Bundan tashqari, Maqsud Shayxzoda dostonidagi uchraydigan poetik xususiyatlar: saj', qofiya, radif kabilarga alohida to'xtaladi.

Olim: "Dostonda qofiyaga rioya qilish va unga moyillik shu qadar zo'rki, hatto she'rlar o'rtasiga kiritilgan she'riy parchalar ham qofiyalangan", - deb misol tariqasida shu parchani keltiradi: "Barchinoyni otdan tushirib yotgan, besh yuz sepini ortgan, qirqin kanizlar Barchinni baxmal uyga olib ketgan, toza liboslarni bu uyga solib yetgan, hammasi choydosh-qumg'onni qaynatgan hokazo..."

Bu she'r emas, nasr (prozadir). Ammo qofiyalangan nasrdirki, buni mumtoz adabiyotda saj` deb ataladi. Demak, bu usul ham xalq poeziyasida chuqur ildizlarga ega (**II,37:215**).

Demak, Maqsud Shayxzoda xalq og'zaki ijodiga mansub asarlarni mumtoz adabiyot bilan qiyosan o'rgangan. Zero, yozma adabiyotda o'z rivojini topgan har qanday so'z, obraz, badiiy g'oyaning ilk asosi xalq og'zaki ijodidir. Maqsud Shayxzoda esa buni to'g'ri anglab yetgan va maqolalarida bu holni ilmiy ravishda asoslab bergan.

Xullas, Maqsud Shayxzoda o'zining "Shirin bilan Shakar", "Alpomish" dostonlari xususidagi chuqur mulohazalari, "Baxshining ijod yo'li" kabi maqolalari bilan xalq og'zaki ijodiga o'z hissasini qo'sha olgandir.

I .01 b) Qardosh xalqlar adabiyotiga doir tadqiqotlar

Maqsud Shayxzoda qardosh xalqlar adabiyoti ukrain, belorus arman, gruzin, ozarbayjon, tojik, qozoq va qirg'izlarning ulkan ijodlari to'g'risida ham ilmiy maqolalar yozgan. Bu maqolalar Maqsud Shayxzoda adabiy-tanqiqdiy asarlarining 5-tomida "Qardosh xalqlar adabiyoti klassiklari haqida" nomli alohida bo'lim sifatida kiritilgan.

Bu bo'limda 1936-yil "Guliston" junralida chop etilgan "Isyonchi shoir - Taras Shevchenko", 1956-yil "Lenin uchquni" gazetasida chop etilgan "Atoqli xalq shoiri - Samad Vurg'un" kabi maqolalari va 1947-yil Nizomiy asarlaridan qilingan "Guldasta" tarjimasiga yozilgan Ilyos Yusuf Nizomiy to'g'risidagi so'zboshi o'z aksini topgan.

"Isyonchi shoir" maqolasida Maqsud Shayxzoda ukrain xalqi orasidan chiqqan va shu xalqning eng sevimli kuychisi - baxshisi Taras Shevchenko haqida, uning hayoti va ijodi, ukrain dehqonlari, ularning yashash tarzi, shoirning dvoryan adabiyotiga munosabati xususida bahs yuritadi.

Maqsud Shayxzoda "Atoqli xalq shoiri" maqolasida ozarbayjon xalqining sevimli shoiri Samad Vurgunning ahamiyati to'g'risida fikr yuritib, shoirning

shoirlik iqtidori, she`riy to'plamlari, dramaturg sifatida olib borgan ishlari to'g'risida keng ma`lumot beradi.

Maqsud Shayxzoda ozarbayjon shoiri va mutafakkiri Nizomiy Ganjaviy hayoti va faoliyati xususida olib borgan ilmiy tadqiqotlari qardosh xalqlar adabiyotiga qo'shilgan ulkan hissa bo'ldi.

Ma`lumki, Nizomiy ozarbayjon adabiyotining yirik namoyandalaridan biri bo'lgan.

Maqsud Shayxzoda Nizomiyni hayoti va foliyati haqida to'xtalar ekan, uning boy ijodiy merosi xususida alohida o'rin ajaratadi: U shunday yozadi: "Nizomiyni merosi oliymaqom va ulug'vordir. Nizomiyni dunyoga tanitgan narsa uning "Xamsa"sidir. Besh mustaqil dostonidan iborat bo'lgan bu monumental asar Sharqda xamsachilik janriga poydevor qo'ydi."**(II.37:295).**

Olim ushbu maqolasida xamsachilik Yaqin va O'rta Sharq xalqlari adabiyotida uzoq va murakkab tarixga ega bo'lgan bir adabiy an`ana ekanligini, Nizomiyni "Xamsa"si faqat ozarbayjon adabiyotidagina emas, balki Yaqin va O'rta Sharq o'lkalari adabiyotida ham yangi bob ochganligini qayd etadi.

Haqiqatan ham, Nizomiyni "Xamsa"si jahon adabiyoti, xususan, Sharq adabiyotining o'lmas yodgorligidir. Maqsud Shayxzoda ta`biri bilan aytganda, Nizomiy birinchi marta o'laroq badiiy mazmun poeziyaga yaqin yangi va betakror syujetlarni kirgizdi. Nizomiy ulug' mahorat bilan kishi ruhining ichki dunyosini buyuk ruhshunos sifatida tahlil qildi. U o'rta asrlarning muzlim kechasida aql, insof, bilim, sevgi, halollik, to'g'rilik, vafo va mehnatning nuroniy mash`alini yoqdi. Shuning uchun ham Nizomiyni "Xamsa"si Sharq mamlakatlarida avloddan-avlodga yetib bordi, boshqa ijodkorlarga ham o'zining ijobiy ta`sirini o'tkazdi. Bu xususda Maqsud Shayxzoda shunday deydi: "Nizomiy dostonlari shu qadar ideal klassik namuna bo'lib qoldilarki, juda ko'p shoirlar unga ergashuvni o'zlariga farz deb bildilar. Sharqda yangi "Xamsa" yozay deb beshtadan doston yozgan shoirlarning soni yuzga borib yetdi" **(II.37:299).**

Shuni aytib o'tish kerakki, har qanday besh doston ham "Xamsa" bo'la olmaydi. Bu dostonlar nomi, janri, vazni, syujeti, obrazlari va kompozitsiyasi bilan

Nizomiyning dostonlariga monand bo'lishi va ayni zamonda Nizomiy "Xamsa"sining takrori yoki taqlidiy nusxasi emas, balki yangi, betakror xamsa bo'lishi, boshqacha aytganda, so'z san'ati taraqqiyotida yangi bir qadam, yangi pog'ona bo'lishi kerak edi. Bu juda murakkab va talabchan an'ana edi. Binobarin, o'nlab shoirlar Xamsa yaratgan bo'lsalar ham, ularning ko'pchiligi bu sohada muvaffaqiyat qozonolmadi, Nizomiy bilan ijodiy olishuvga bardosh berolmadi. Faqat uch shoirgina ulug' xamsanavis bo'lib, Nizomiy qatoridan o'rin olishga muyassar bo'ldi. Bular ulug' hind shoiri Xusrav Dehlaviy, ulug' fors-tojik shoiri Abdurahmon Jomiy, ulug' o'zbek shoiri Alisher Navoiydir **(II.18:26)**.

Maqsud Shayxzoda o'z tadqiqotida ulug' o'zbek mutaffakkiri Alisher Navoiyning Nizomiy Ganjaviy ganjinasidan bebaho durlarni qo'lga kiritgani xususida ham to'xtalib o'tadi va "...shubhasiz, Nizomiyning buyuk merosidan ilhom olgan va undan ijodiy-tanqidiy ravishda bahramand bo'lgan buyuk shoirimiz Alisher Navoiydir. Uning barcha dostonlarida va asarlarining ko'pchiligida Nizomiy sha'niga mutashakkurona madhiyalar va ehtiromli misralarni o'qiymiz. Chunonchi, "Hayrat ul-abror"ning kirish qismida shu oliy bahsni ko'ramiz.

Ganja Vatan, ko'ngli oning ganj xez,
Xotiri ganjuri tili ganjrez.
Kaffal mezon anga aflak ulub,
Botmoni toshi kurai xok o'lib,
Tortsa yuz qarn xirad xozini
Chekmagay oning ko'pidan ozini.
Nozim o'lub so'z duri serobig'a
Charx "Nizomiy" yozib alqobig'a **(II,37:299)**.

Xullas, Maqsud Shayxzoda o'zining "Taras Shevchenko" (1936), "Shota Rustaveli" haqida (1938), "Zamonamizning ulug' shoiri jambul jabay o'g'li" (1946), "Shayx Ilyos Nizomiy Ganjaviy" (1940) kabi maqolalari bilan o'zbek kitobxonlarini qardosh adabiyot vakillarining hayoti va ijodi bilan tanishtirdi. Bundan tashqari, Maqsud Shayxzoda qardosh xalqlar adabiyoti namunalarini o'zbek tiliga muvaffaqiyat bilan tarjima qilgan. Shota Rustavelining "Yo'lbars terisi

yopingan pahlavon" (Shoir Mirtemir bilan hamkorlikda) dostoni, Nizomiy Ganjaviy va Fuzuliyning lirik sheʼr va manzumalarini, Mirzo Fatali Oxundovning falsafiy qissalari, Taras Shevchenkoning "Kavkaz" dostoni va "Gaydamaklar"i (parcha), Jambul Jabayev, ozarbayjon shoirlari Samad Vurgun, Sulaymon Rustam, arman shoiri Avetik Isaakyaning o'zbekchaga tarjima etilgan asarlari shular jumlasidandir **(II,7:167)**.

Maqsud Shayxzoda ingliz, nemis, farnsuz, italyan, turk, eron va Tojikiston adabiyotining atoqli vakillari haqida ham diqqatga sazovor maqolalar yaratdi. Uning "Shekspir geniysi adabiy so'nmaydi" (1940), "Bernard Shou do'stimiz" (1933), "Beranje - erklik kuychisi" (1934), ""Muhammad Iqbol - ulug' mutafakkir shoir va ozodlik jarchisi" (1958) kabi adabiy-tanqidiy maqolalari bilan yuksak saviyada bilimdonlik bilan yozilgan maqolalardir**(II,7:158)**.

I .01 d) *Bugungi adabiyot Maqsud Shayxzoda nazarida*

Maqsud Shayxzoda xalq og'zaki ijodi, qardosh xalqlar adabiyotiga doir tadqiqotlar olib borish bilan birga bugungi adabiyot, ya'ni zamonaviy adabiyot yuzasidan ham qator ilmiy tadqiqotlar olib borgan. Bugungi adabiyot tadqiqotlariga adabiyotshunoslikning 1948-yil, "Qizil O'zbekiston" gazetasidagi "Hamidning sozi", 1964-yil shoir G'afur G'ulomning ko'p tomligiga yozgan "Shoir tili - xalqning dili" muqaddimasi, 1955-yil 31-yanvarda "Qizil O'zbekiston" gazetasidagi "Umr va mehnat", 1967-yil "Sharq yulduzi" jurnalida yozilgan "Qalam va burch" maqolalari misol bo'la oladi. Bu maqolalarida Maqsud Shayxzoda o'zbek adabiyotining yirik vakillari Hamid Olimjon, G'afur G'ulom, Oybek va Shuhrat kabi yozuvchilarning hayoti va faoliyatini chuqur va aniq aks ettirishga, yangi zamon va uning odamlariga xos bo'lgan butunlay yangicha xususiyatlarni ifodalashga harakat qilgan.

Maqsud Shayxzodaning bugungi adabiyotga doir ilmiy maqolalari bilan tanishar ekanmiz, bular ichida shoirning "Hamidning sozi" maqolasi alohida ajralib turadi. Bu maqola noyob iste'dod egasi Hamid Olimjon vafotiga to'rt yil to'lish munosabati bilan yozilgandir.

Hamid Olimjon haqida gap ketganda, uni faqatgina o'zbek xalqining iste'dodli shoiri, dramaturgi va nasrnavigi, publisisti, davlat va jamoat arbobi sifatida xarakterlash kamlik qiladi. Chunki Hamid Olimjon qush uyasiga qiyos etgulik g'oyat qisqa, biroq nihoyatda mazmundor hayoti davrida aqlga sig'maydigan keng miqyosli ulkan ishlarni amalga oshirishga ulgurdi. O'zbek xalqi adabiy-madaniy hayotining rang-barang jabhalarini noyob fazilatlar bilan boyitish yo'lida unumli mehnat qildi **(II,4:9)**.

Hamid Olimjon o'zbek she'riyati ovoziga ovozini qo'shib taniqli shoirlar qatoridan o'rin oldi. Bu haqida Maqsud Shayxzoda shunday deydi: "Hamidning she'riy sozi bu yuksak g'oyalar va tuyg'ularning go'yo fusunkor barmoqlari bilan har xil pardalarda jaranglagan soz edi"**(II,37:99)**.

Haqiqatan ham, Hamid Olimjonning sozi salkam yigirma yil mobaynida o'zbek she'riyatining umumiy taronasida eng faol va baland ohangli sozlardan bo'ldi. Shoir o'zining birinchi to'plami bo'lmish "Ko'klam", "Daryo kechasi" nomli kitoblaridan boshlab so'nggi she'rlarigacha "Baxt" to'plamiga, Vatan urushi davridagi yuksak insoniylik hislari bilan ozuqlangan asarlarigacha o'z shoirlik sha'ning sodiq posboni, aziz xalqi ham Vatanining otashin muxlisi va kuychisi bo'lib keldi.

Maqsud Shayxzoda Hamid Olimjon ijodiyotining eng baquvvat bir xususiyati, doimo olg'a kurash, she'rning savtlarini avj pardalariga ko'tara bilish, yozganidan yana yaxshiroq yozishga intilish ekanligini aytib o'tadi.

Adib o'zining Hamid Olimjon haqidagi tadqiqotlarida shoirning erk va baxt kuychisi ekanligini ta'kidlab, shoirning o'z shaxsiy baxt-u saodatini elning, yurtning baxtu saodatiga bog'laganini, o'z ruhiy kayfiyatlarini zo'r bir jamiyatdagi kayfiyatlarining juz'iy bir qatrasi deb bilganligini shoirning she'rlari orqali tadqiq etadi:

Chunki elim qayg'uni bilmas,
Chunki yo'qdir Vatanda motam,
Ozod xalqim boshiga kelmas
Endi sira musibat va g'am **(II,37:102)**.

Maqsud Shayxzoda Hamid Olimjonning faoliyati haqida ham to'xtalib shunday deydi: "Urush yillarida Hamidning sozi harbiy bir qurolday g'azablanib, dushmanga nafratlanib hamla qildi, g'alaba ishonch, Vatanga sadoqat, jangda jasorat, mehnatda g'ayrat qo'shiqlarini ravon bandlarda kuyladi. Aytish mumkinki, u qo'shinning shoiri va she`rning askari bo'ldi"(II,37:106).

Maqola so'ngida Maqsud Shayxzoda Hamid Olimjonning qonxo'r fashistlar ustidan qozonilgan buyuk zafardan o'n oy ilgari vafot etganini qayg'u bilan yodga oladi va bunga to'rt yil bo'lgani, ammo Hamidning serohang sozi hech qachon o'lmasligini va xalqimizning ulug'vor qalbida mangu yashashiga ishonch bildiradi.

Xullas, Maqsud Shayxzoda ilmiy faoliyatiga nazar solar ekanmiz, uning adabiyotimizning turli yo'nalishlarida izlanishlar olib borganini kuzatamiz. O'zining olimona iqtidori, o'tkir fahm-farosati bilan Maqsud Shayxzoda folklorshunoslik, mumtoz davr, qardosh xalqlar adabiyoti, zamonaviy adabiyot va olgan. har bir davrning adiblari, ularning ijodiyoti xususida salmoqli fikrlar ayta Olim ilgari surgan fikr-mulohaza va xulosalar keyinchalik rivojlantirilib, yaxshi-yaxshi tadqiqotlar yuzaga kelgandir. Umuman, adabiyotshunoslikda, xususan, mumtoz davr adabiyotini tekshirishda Maqsud Shayxzodaning o'z uslubi bo'lganki, hozirda ham deyarli ko'pchilik olimlar shu uslubda ergashib izlanishlar olib boradi. Bu esa Maqsud Shayxzoda dahosining ilmda o'z o'rne va darajasiga ega bo'lgan olimligidan dalolatdir.

I .02. Maqsud Shayxzoda - mumtoz adabiyot tadqiqotchisi

Maqsud Shayxzoda o'ta teran bilimli va donishmand adabiyotshunos olim edi. Adibning adabiyotshunoslikka oid asarlaridagi chuqur va keng ma`lumot, bilimdonlik kishini hayratda qoldiradi. U o'zbek adabiyoti tarixini yaxshi bilardi va adabiyot tarixiga bag'ishlab bir qator tadqiqotlar yaratdi.

Ma`lumki, adabiyot tarixini tadqiq qilish zamonaviy ijodkorlar haqida fikr yuritishga nisbatan murakkabroqdir. Bunga sabab adabiyotimiz tarixi bugungi adabiy jarayondan ko'p jihatdan farq qilishidir. Bu farq qariyb ming yillik adabiyotimizdagi dunyoqarashning xilma-xilligida emas, balki uning asosiy zamiri

bo'lmish tilning murakkabligi, vaznning kam o'rganilganligi, janrlarning nisbatan turg'unligi, ijod mahsulotlarining bizgacha yetib kelmaganligida hamdir (II,47:4). Bu murakkabliklarga qaramasdan o'zbek adabiyotshunosligida Maqsud Shayxzoda, H.Sulaymon, N.Mallayev, A.Hayitmetov, E.Rustamov kabi bir qator tadqiqotchilar yetishib chiqdiki, ularning ilmiy-tekshirish ishlari natijasida boy o'tmish adabiyotimiz anchagina keng va chuqur o'rganildi.

Maqsud Shayxzoda G'arbiy Yevropa va rus adabiyotini mukammal bilgani holda o'zining Vatan adabiyotini - Sharq she'riyati merosini ham to'la o'rgangan edi. Shu tufayli Maqsud Shayxzoda tarix, adabiyot, falsafa ilmlaridan puxta bilimdon, atoqli olim sifatida mashhur bo'ldi.

Olimning Firdavsiy, Nizomiy, Shayx Sa'diy, Hofiz Bedil, Fuzuliy, Mashrab, Muqimiy, Furqat, Hamza Hakimzoda Niyoziy va boshqa klassik shoirlar ijodi haqida chuqur tadqiqotlar olib borgani ma'lum.

"Klassik poeziyamizning ma'naviy dunyosi meni ko'p yillardan beri qiziqtirib keldi", - deb e'tirof etadi Maqsud Shayxzoda va u bashar zehnining so'lmas durdonalari bo'lmish g'azallarda va ruboiylarda, qasidalarda va soqiynomalarda olvoli ehtiroslar bilan birga vazmin fikrlarning omixta bo'lib ketishi san'atkordan chinakam iste'dod bilan zo'r malaka va puxtalikni taqozo qilishini ta'kidlaydi.

Mana shu qiziqish, o'rganish va katta mehnat mevasi sifatida ikki yuzdan ortiq ilmiy ishlar, chuqur tadqiqotlar maydonga kelgan. Ilmiy tekshirish ishlari ham Maqsud Shayxzoda ijodining iste'dodining ajralmas bir qismidir. Bu ilmiy ishlar maqolalarning tekshirish, o'rganish manbasi, mavzu doirasining boyligi va xilma-xilligi kishini hayratda qoldiradi. Dramada bo'lgani kabi, fanda ham Maqsud Shayxzoda ko'proq tarixchi olim sifatida namoyon bo'ladi, bu yerda ham uning diqqatini yuksak masalalar, go'zal asarlar ulkan siymolar o'ziga tortgandir.

Alisher Navoiy va Nizomiy, Bobur va Boburiylar, Shota Rustaveli va Pushkin, Mayakovskiy va Gorkiy, S.Ayniy va Oybek - Maqsud Shayxzoda uchun bu siymolarning har biri u o'rganishi, o'qishi kerak bo'lgan yangi kitob, go'yo olim

ularning mahorati, asarlarining til kompozitsiyasini o'rganadi, ular haqida bir kitobxon sifatidagina emas, olim sifatida ham fikr yuritadi.

Bu asarlarning mohiyatini anglagani, ruhiga kira olgani uchun ham ular haqida fikr yuritish noyob fikr egasi bo'lgan Maqsud Shayxzodaga qiyin emas edi. Maqsud Shayxzodaning bizga meros bo'lib qolgan ikki yuz ellikdan ortiq katta-kichik maqolalari o'ziga xos ijodiy mehnatning samarasidir(II,30:32).

Maqsud Shayxzodaning mumtoz adabiyotni o'rganishdan maqsadi - mumtoz adabiy boyligimiz va uning o'lmas merosini zamonamiz uchun, ayniqsa, yoshlar uchun naqadar zarur ekanligini bir karra isbotlab berishdan iborat edi. Ulug' adabiyotshunos o'z oldiga qo'ygan ushbu maqsadga erishdi. Mumtoz adabiy merosimizning, o'lmas asarlarning barcha zamonlar uchun o'ta muhimligi, jumladan, yoshlar kelajagi uchun ularning naqadar zarur ekanligini o'zining o'tkir idroki, teran falsafiy tahlillari bilan isbotlab bera oldi.

Maqsud Shayxzoda nafaqat mumtoz adabiyot tadqiqotchisi, balki u o'zbek adabiyotini noyob ilmiy tadqiqotlar, yuksak saviyali adabiy-tanqidiy tekshirishlar, badiiy-publisistik maqolalar va ajoyib tarjima asarlari bilan boyitishga katta hissa qo'shgan iste'dod sohibi edi. Aytib o'tganimizdek, Maqsud Shayxzoda ilmiy faoliyatining ko'lami juda keng va mavzu doirasi xilma-xil bo'lib, bular o'zbek madaniyati tarixi, Navoiy, Bobur, Muqimiy va Furqat haqida, xalq og'zaki ijodi va uning mashhur namoyandalari to'g'risida, qardosh xaqar hamda o'zbek adabiyoti arboblarning ijodiy faoliyati haqida bahs etadi.

Maqsud Shayxzodaning "Zahiriddin Bobur" (1937), "Vatan gulzorining o'tli bulbuli" (1948), "Furqat haqida qaydlar" (1958), "Furqatda Vatan" hamda olim ilmiy faoliyatining yuksak pillapoyasi - Alisher Navoiyning oliymaqom ijodi va mislsiz she'riy san'ati haqida yaratgan ilmiy asarlari fikrimizning dalilidir (II,30:15).

I .02. a) *Sharq adabiyoti tarixi masalalari va ularning xususiyatlari*

30-yillarning o'rtalariga kelib o'zbek adabiyoti yangi bosqichga ko'tarildi. Bu davrlardan boshlab Maqsud Shayxzoda ijodida ko'zga tashlanadigan xarakterli

xususiyatlardan biri shundaki, shoir ijodining ilk davrlarida ko'rilgan nasihatgo'ylik, fikriy noaniqliklar yo'qola bordi. Uning o'rnini siyosiy va falsafiy mavzularning betakror she'riy tasvirini chizishga intilish, uni lirik tarzda ifodalash egallay bordi.

Uning o'rnini siyosiy va falsafiy mavzularning betakror she'riy tasvirini chizishga intilish, uni lirik tarzda ifodalash egallay bordi. Bunga, albatta, uning adabiyot tarixiga chuqur qiziqqani va uni sevib o'qigani sababdir. Va shu orqali adabiyot ikki tomonlama yutuqqa erishdi. Birinchidan, adabiyot tarixi, yirik siymolarning hayoti va ijodi o'rganilib, o'quvchilarga yetkazildi. Ikkinchidan esa, mumtoz lirik janrlarni tadqiqi qilgan Maqsud Shayxzoda ham shu janrlar va shu ruhdagi yangi asarlar yaratildi.

Maqsud Shayxzoda Sharq adabiyoti tarixi masalalariga chuqur qiziqqan. Sharq adabiyotida mavjud asarlar, ularning janr xususiyatlari, badiiyat masalalarini yetarlicha tadqiq qilgan.

O'zbek mumtoz adabiyotining eng ilg'or va taraqqiyparvar namoyandalaridan ko'p narsa o'rgangan Maqsud Shayxzoda badiiy mahorat va adabiy janrlar takomillashgani ko'rinadi. U mumtoz she'riyatdagi mehnatsevarlik, ilm-fanga ixlos, vafo, sadoqat, mardlik va do'stlik kabi yuksak bashariy fazilatlarni betakror badiiy usullar, masnaviy va ruboiy kabi lirik janrlarni o'rganib, ularni o'z ijodiy ish jarayonida muvaffaqiyatli ravishda tadbiiq qila boshlagan.

Maqsud Shayxzoda she'riyatdagi lirik tur va janrlarni boyitish boraisda ham barakali ijodiy mehnat qildi. U mumtoz she'riyatdagi masnaviy (ikkilik), murabba' (to'rtliklar), muxammas (beshliklar), musaddas (oltiliklar), qasida va ruboiy kabi lirik janrlarni ijodiy qayta ishlab, bu lirik shakllar orqali voqelikning badiiy ifodasini berishga muvaffaq bo'ldi. O'tmish adabiyotda bu janrlar mutlaq aruz vaznida yozilgan bo'lsa, shoir ularni barmoq vaznida ishladi. Bu o'rinda shoirning mumtoz adabiyotdagi qasida janrini qayta ishlashi, unga yangi mazmun berish borasida samarali ish qilganligini alohida ta'kidlash zarur(II,46:5).

Maqsud Shayxzoda mumtoz adabiyot ustida tadqiqotlar olib borar ekan, o'zbek mumtoz adabiyoti o'ziga xos tarixiy-madaniy muhitda, Yaqin va O'rta Sharq

xalqlari adabiyoti bilan aloqada o'sganligi, rivojlanganligini aytib o'tadi. O'zbek mumtoz adabiyoti asarlarini nazariy jihatdan yoritishda, jumladan, janr jihatdan tasnif qilishda "Sharq adabiyotshunosligi", "Ilmi adabi" va uning uch nazariy tarkibi - "Ilmi aruz", "Ilmi bade'", "Ilmi qofiya" hamda adabiyotshunoslikning boshqa sohalari katta salohiyatga ega ekanligini alohida ta'kidlaydi. Adabiyotshunos olim o'zbek mumtoz adabiyoti masalalarini badiya va janrlarni o'rganar ekan, bu borada Alisher Navoiyning xizmatlari beqiyos ekanligini aytib o'tadi. Bu haqda u shunday deydi: "Alisher Navoiyning jihatlari beqiyos ekanligining o'zi ham she'riyatning nanazriyasi, adabiyot, tarix - o'zbek she'riyatidagi vaznlar va ayrim shoirlarning adabiy salmog'i bilan bevosita shug'ullanib turganki, "Mezonul-avzon", "Majolis un-nafois", "Munshaot", "Muhokamatul-lug'atayn" hamda "Chordevon"iga kirgan ikkita "Debocha"si bu fikrimizning yaqqol dalili bo'la olur **(II,37:6)**. Haqiqatan ham, yuqorida nomi zikr etilgan asarlar Navoiyning adabiy-tanqidiy qarashlarini, o'rganishga birinchi manba bo'lib xizmat qila oladi. Maqsud Shayxzoda esa buni o'z davridayoq anglay olgan va bu qarash keyinchalik shu mavzu doirasida chuqur tadqiqotlar yaratilishiga turtki bo'lgan, deyish mumkin.

I .02 b) Bobur ijodiyoti

Maqsud Shayxzodaning Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti va faoliyati xususida olib borgan ilmiy tadqiqotlari ham adabiyotshunoslikda alohida ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, Zahiriddin Muhammad Bobur o'zbek mumtoz adabiyotining taniqli namoyandalaridan biri, atoqli shoir va davlat arbobidir. Maqsud Shayxzoda ta'biri bilan aytganda, u "kurashchan ruh", - ya'ni Bobur yuksak muvaffaqiyatsizliklarning mayda muvaffaqiyatlardan ko'ra naqadar oliy ekanini anglagan va hayotning mashaqqatli onlarida ham kurash irodasidan qaytmagan shaxs edi.

Maqsud Shayxzoda Boburning mashaqqatli hayot yo'li haqida to'xtalar ekan, uning ijodi ustida ham alohida tadqiqotlar olib boradi. Xususan, Bobur Mirzo

adib va shoir bo'lish jihatidan o'zbek adabiyoti tarixida o'ziga xos o'rin tutishi, uning bizga ma'lum asarlari: 1) "Boburnoma"; 2) Turkiston va Afg'onistonda yozgan yirik she'rlar devoni; 3) Masnaviy tarzida yozilgan "Mubayyin" asari; 4) Ubaydullaxo'janing "Volidiya" nomli asarining nazm bilan tarjimasi; 5) "Mufasssal"; 6) "Xatti Boburiy" asarlarini sanab o'tib, shoirning "Boburnoma" asariga alohida to'xtaladi: "Bobur Mirzoning asarlari o'rtasida "Boburnoma" mustasno ahamiyatga egadir. Bu asarni uning shoh asarni desak bo'ladi." **(II,37:14).**

Haqiqatan ham, "Boburnoma" o'zbek nasrining klassik namunasi. U shoh asar bo'lganligi uchun ham bir necha tillarga tarjima qilingan va ko'pchilik sharqshunos olimlarning diqqatini o'ziga tortgan.

Boburning lirika sohasida ham xizmatlari beqiyos bo'lgan. Maqsud Shayxzoda ta'biri bilan aytganda, "Bobur ruboiyning ustasi bo'ldi". O'rni kelganda shuni ham aytish kerakki, o'zbek mumtoz adabiyotida hech kim Navoiydan keyin Boburdek go'zal va o'qimishli, badiiy jihatdan yuksak va o'tkir mushohadali ruboiylar yozgan emas.

Bobur lirikasi bilan tanishar ekanmiz, uning mavzu jihatidan boy va xilma-xil ekanligining guvohi bo'lamiz. Bu haqda Maqsud Shayxzoda shunday deydi: "Bobur poeziyasi hamma narsadan avval zo'r samimiyat bilan kuylangan poeziyadir. U turmushdagi yutuqlarini katta sevinish bilan kuylagani holda, mag'lubiyatva xatolarni ham uyalmasdan iqrar qiladi va ularni yumshoq alamlar bilan munglaydi. Quyidagi ruboiy Bobur hayotida va binobarin uning qalbida bir-biriga qarama-qarshi voqealar va ruhiy kechinmalarning yuz berganini ko'rsatadi:

Hijron g'amidin zaif jonim so'ldi,

G'urbat alami birla ichim qon to'ldi.

Yuz shukurki, muncha yilgi g'am birla alam,

Rohat bila ishratg'a mubaddal bo'ldi. **(II,37:18).**

Bobur o'zining lirik she'rlari bilan o'zbek mumtoz she'riyatini rivojlantirishga ulkan hissa qo'shdi, jahon adabiyoti xazinasini o'lmas durdonalar bilan boyitdi.

Umuman, Maqsud Shayxzodaning Bobur haqidagi maqolasida Bobur ijodi juda keng masalalar va keng materiallarni o'z ichiga olishi, Boburning merosi mufassal va mukammal tekshirishga haqli ekanligi aytiladi. Olim shoir yashagan davr bilan bizni tarixning besh yuz yillik olis masofa ajratib tursa-da, shoirning nomi xalqimiz qalbidan munosib o'rin olganligini to'g'ri e'tirof etadi.

I .03 d) Muqimiy va Furqat ijodiyoti

Maqsud Shayxzodaning 1943-yilda yozgan "Vatan gulzorining o'tli bulbuli" maqolasi o'zbek demokratik adabiyotining taniqli vakili Muqimiy haqida yozilgandir.

Shayxzoda maqolani Muqimiyning "Muqimiy, qaysi gul ishqida mundog' o'tli bulbuldek fig'on qilding" misrasi bilan boshlaydi.

"Qaysi gul ishqida?" Maqsud Shayxzoda o'ziga ana shunday savol berib javobini ham keltiradi: "Navoiyning murakkab tuyg'ularga boy bo'lgan ishqidan, Boburning shohona umidvor sevgisidan, Fuzuliyning darveshona dardidan, Amir Umarxonning amirona va ixloskor muhabbatidan bahralar olgan Muqimiy to'la ma'nosi bilan oshiq-shoir va shoir-oshiq edi.(II,37:21).

Shu keltirilgan parchaning o'zidanoq ko'rinib turibdiki, Maqsud Shayxzodaning shoirlik, ijodkorlik salohiyati ilmiy ishlarida ham aks etgan. Bu esa Maqsud Shayxzodaning o'ziga xos tadqiq uslubini belgilaydi. Olim Muqimiy, Navoiy, Bobur, Fuzuliy, Amir Umarxon ijodidan bahramand bo'lib, ularning har biridan qaysi jihatlarni o'rganganini ham qisqa, ham chuqur, ham ta'sirchan tarzda ifodalaganki, bu fikrlarni o'qigan o'quvchi zerikmaydi, ilm va ijod birligidan ko'nglida zavq uyg'onadi.

Maqsud Shayxzodaning 1958-yilda yozilgan "Furqat va Muqimiy haqida maqolalar" kitobidagi "Furqat haqida qaydlar" ilmiy maqolasi ham o'zbek mumtoz adabiyotiga qo'shilgan ulkan xizmatlardan biridir.

Maqsud Shayxzoda Zokirjon Xolmuhammad o'g'li Furqat o'zining zamondoshi, do'sti Muhammad Amin Muqimiy bilan birgalikda ko'p asrlik o'zbek

adabiyoti tarixida yangi bir davr ochgan qudratli ma`rifatparvar, demokratik shoir ekanligini aytib o'tadi.

Oliy ushbu maqolasida shoirning hayoti, ijodiy faoliyati, shoir ijodining badiiy xususiyatlari, uning ma`rifatparvarlik, musiqa sohasidagi qarashlarini aks ettiradi. Bundan tashqari, Muqimiy va Furqat ijodini taqqoslab o'rganadi. Shu bilan birgalikda, o'zbek adabiyoti tarixida bizga ma`lum yozuvchilar orasida eng ko'p sayohat qilgan, Osiyo, Yevropa va Afrikaning ko'p mamlakatlarini o'z ko'zi bilan ko'rib-bilgan jahongashta shoir Zokirjon Furqat ekanligini alohida ta`kidlab o'tadi va Furqatning o'z she`r va maqolalarida, xonasi kelganda, jug'rofiy nuqtalarga suyanib, uning safar yo'llarini ko'z oldimizda jonlantirsak, juda maroqli bir manzaraning guvohi bo'lamiz", - deb yozadi **(II,37:35)**.

Maqsud Shayxzoda Furqat ijodini tahlil qilar ekan, Furqat ijodini uch qismga bo'lib, birinchi qismini "ma`rifat poeziyasi, ikkinchi va uchinchi qismlarini lirika va publisistika deb belgilaydi. Birinchi qism poeziyaning joni va yuragi - ilmni tashviq va targ'ib qilishda namoyon bo'ladi. Haqiqatan ham, Furqat poeziyasining chin pafosi bilim va ma`rifat g'oyasidir, desak xato qilmaymiz", - deydi Maqsud Shayxzoda. Shuni ham ilova qilish kerakki, Furqat o'zi yashagan davrda yuz bergan yangiliklarni o'z asarlarida to'g'ri aks ettirishga uringanidan ilmni umuman emas, amaliy va hayotiy foydalarini ko'zda tutib kuylaydi, ya`ni aniqroq qilib aytganimizda, u yangi texnikani ham tarannum etadi.

Maqsud Shayxzoda o'zbek adabiyoti tarixida Furqat birinchi bo'lib "teatr" atamasini tilga olganini, teatrning katta ijtimoiy, ma`rifiy, tarbiyaviy hamda badiiy ahamiyatini qayd qilib, o'zi ham ilk daf`a dramatik janrlarga yaqin manzuma yozganini ta`kidlab o'tadi.

Umuman, Maqsud Shayxzoda Furqat ijodiyotini o'rganar ekan, u qoldirgan ijodiy merosning ahamiyatini ochib bleradi va Furqatning ijodi orqali o'sha davr tarixiy ahvoli, xalq turmushi, orzu-istagini o'rganish mumkinligini isbotlab beradi.

Xullas, Maqsud Shayxzoda mumtoz adabiyot tarixining chuqur bilimdoni bo'lgan. U xalq og'zaki ijodidan boshlab yozma adabiyotga mansub yirik badiiy asarlar, betakror san`at namunalari hamda ulug' iste`dodlar ijodiyotining poetik

jihatlarini yuksak saviyada tadqiq etib adabiyotshunoslikda o'ziga xos uslub va yo'nalish yaratdi.

Maqsud Shayxzoda har bir adabiy hodisani tahlil etar ekan, uni shunchaki tadqiq etmaydi, balki o'sha tadqiq etilayotgan asarning yuzaga kelish omillari, g'oyaviy-badiiy xususiyatlari, mazmun-mohiyatini turli jihatdan yetarlicha o'rganadi va o'z fikrini ilmiy ravishda asoslaydi.

Bugun ham adabiyotshunoslik ilmida, albatta, Maqsud Shayxzoda uslubidan borish katta natijalarga olib keladi va belgilangan mavzuni to'g'ri, aniq yoritish yo'lini o'rgatadi deyish mumkin.

II bob

Alisher Navoiyning adabiy merosi Maqsud Shayxzoda talqinida

II.01.Shoirning lirik merosiga munosabat

Tarix hukmi shunga guvohki, xalqchil, insonparvar va yuksak san`at namunasi bo'lgan asarlargina davrlar sinovidan o'tib yangidan-yangi avlodlarga ma`naviyat va ma`rifat nurlarini taratib ardoqli meros sifatida qadrlanadi. Ulug' Alisher Navoiy yaratgan bebaho badiiy durdonalar ana shunday taqdirga ega. Yana shu ham haqiqatki, buyuk obidalarini bunyod eta olgan umri bezavol mutafakkirlarning har bir so'zi, inson va insoniyat, hayot va jamiyat haqidagi qarashlari, go'zallik, nafosat borasida bildirilgan mulohazalari qimmatli va qadrlidir (II,45:5).

Har bir ulug' shoir yoki yozuvchi olim va san`atkor ayni vaqtda ulug' insondir. Shuning uchun bunday ijodkorlarning asarlarini o'qish, o'rganish bilan cheklanib qolmasdan, ularning hayot yo'lini ham bilish lozim.

Alisher Navoiy ham shunday buyuk siymolarimizdan biridir. Navoiyning hayoti va ijodini o'rganishda Y.E.Bertels, Ayniy, Oybek, Fitrat, A.Hayitmetov, B.Valixo'jayev, M.Shayxzoda, Y.Ishoqov, N.Komilov, R.Vohidov, I.Haqqul singari olimlarimiz ko'p qimmatli ishlarni amalga oshirdilar. Ular o'z ilmiy ishlari bilan el nazariga tushdilar. Alisher Navoiy adabiy faoliyatini o'rganishda ibrat ko'rsatdilar. A.P.Qayumov "Xamsa" tarkibidagi har bir dostonga bir kitob bag'ishlab, ilmiy beshlik yaratdi. Alisher Navoiy tarjimai holiga doir esse janriga kitob nashr ettirdi. Professor A.Hayitmetovning shu ulkan alloma ijodiga doir mulohazalari o'nga yaqin kitob sahifalarida bayon etildi. Shunday tafsilotlarni ro'yxatdan joy olgan boshqa navoiyshunoslarimiz xususida ham hech ikkilanmay aytish joizdir (II,4:6).

Navoiyshunos olimlarimizdan biri Maqsud Shayxzoda qariyb 30 yil (1939-1967) mobaynida ulug' mutafakkir ijodi ustida ishlab, yigirma beshga yaqin adabiy-tanqidiy maqola va monografik xarakterdagi tadqiqotlar yaratdi. Ular asosan, "Navoiy adabiy merosi haqida" (1939), "Navoiy va Bobur" (1939),

"Navoiyda adlu insof masalasi" (1941), "Genial shoir" (1941), "Navoiyda lirik qahramonning xarakteristikasiga doir" (1947), "Yuksak g'oyalar va chuqur tuyg'ular kuychisi" (1948), "Klassik adabiyotimizning ulug' siymosi" (1948), "Navoiyning ilk dostoni", "Hayrat ul-abror haqida" (1958), "Ustodning san'atxonasida (to'rt maqola, 1965-1966) va "G'azal mulkining sultoni" (1966) va boshqalardir.

"Navoiy ijodi shunday ulug' bir dengizki, undan har kim o'z kosasiga yarasha bahramand bo'ladi", deguvchi Maqsud Shayxzoda ulug' mutafakkir merosini o'rganish murakkab, g'oyat mas'uliyatli va sermehnat ish ekanligini chuqur his qildi. Navoiy ijodi haqidagi qaysi bir masala qo'lga olinmasin, Maqsud Shayxzoda ularga qat'iy ilmiy-tarixiy nuqtai nazardan yondoshadi, izchil va muayyan tadqiqiy tamoyilga amal qildi **(II,7:59)**.

Alisher Navoiy mavzui Maqsud Shayxzoda adabiy faoliyatida markaziy o'rinlardan birini egallaydi, desak xato bo'lmaydi. U serqirra ijodkor sifatida Alisher Navoiy adabiy merosiga zo'r ehtiros, katta qiziqish bilan munosabatda bo'lgan. Ulug' mutafakkir shoir asarlari xususida Maqsud Shayxzoda shunday deydi: "Navoiyning asarlari bizga katta xizmat ko'rsata oldi. Navoiyning ishlash uslubi, mehnatni uyushtira bilishi, tarix oldida, xalq oldida va o'z vijdoni oldida mas'uliyat sezishi, asarlarning chuqur g'oyaviyligi, har bir misra ustida zargar singari puxta ishlashi va boshqalar yosh yozuvchilar uchun o'rnak bo'la olur"**(II,36:10)**.

Darhaqiqat, Navoiyning har bir so'zi hozir ham purma'no hikmat bo'lib jaranglamoqda, hozir ham bizga ibrat va saboq bo'lmoqda. Buyuk shoirning mavqei va vazifasi, tarixiy burchi va beqiyos ezgu niyatlari uni ilm-u adabning turli sohalarda qalam surishga, turli sohalarda o'z qarashlarini aniqlashga, turfa xil tabaqa vakillarini o'rganish hamda ular haqida fikr bildirishga undar, o'zigacha bo'lgan adabiyoti, san'at va madaniyat yutuqlarini tadqiq qilish, yosh ijodiy kuchlarga rahnamo bo'lishga, forsiy va turkiy adabiyot orasidagi aloqalarni mustahkamlash va ayni vaqtda turkiy tilda ijod qiladiganlarni har tomonlama rag'batlantirishga, kuch-g'ayrat sarflashga undar edi. Shuning uchun Navoiyning

badiiy asarlarida ham, ilmiy tazkira va tadqiqotlarida ham, hamma-hammasida yetakchi niyatlarning izhorini ko'ramiz. Zero, prezidentimiz ta'kidlaganlaridek: "Alisher Navoiy xalqimizning ong va tafakkuri, badiiy madaniyati tarixida butun bir davrni tashkil etadigan buyuk shaxs, milliy adabiyotimizning tengsiz namoyandasi, millatimizning g'ururi, sha'n-u sharafini dunyoga tarannum qilgan o'lmas so'z san'atkoridir...

Agar bu zotni avliyo desak, u - avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak - mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak - shoirlarning sultonidir".(II,14:13).

Maqsud Shayxzoda siymosida Alisher Navoiy adabiy merosining yetuk targ'ibotchisi namoyon bo'ladi. Sh.Shoadurahmonovning Maqsud Shayxzoda haqidagi xotiralarida shunday jumlar bor: "Maqsud Shayxzoda saboqlaridan men va kursdoshlarim mumtoz adabiyotimizni, ayniqsa, keyinchalik o'zi "G'azal mulkning sultoni" deb atagan buyuk Alisher Navoiy ijodini undan birinchi marotaba o'rgangan edik, o'rganganda ham to'laligi, mufassalligi bilan o'rgangan edik.

Esimda, ustoz Navoiydan saboq berganda uni faqat programmada ko'rsatilgan "Xazoyinul maoniy" va "Xamsa" aarlarinigina emas, balki "Majolisun-nafois", "Mezonul-avzon", "Lisonut-tayr", "Muhokamatul-lug'atayn", "Mahbub ul-qulub" kabi jahon madaniyatiga katta hissa bo'lib qo'shilgan asarlari haqida ham muxtasar ma'lumot berib, Navoiyning mukammal ijodiy portretini yaratishga erishar edi.(II,40:125).

Maqsud Shayxzoda Mir Alisher Navoiy ijodiyotini o'rganar ekan, ulug' mutafakkirning shoirlik mahorati, adiblik salohiyati, olimlik iqtidorini chuqur yoritib beradi. U Navoiy ijodidagi asosiy xususiyatlar, gumanistik g'oyalar, badiiyat masalalari, ijtimoiy-falsafiy, siyosiy-ma'rifiy qarashlari tadqiq etib yaxshi natijalarni qo'lga kiritadi.

Maqsud Shayxzoda Navoiy lirik merosini o'rganishga alohida e'tibor bilan qaradi. Navoiyshunoslarimiz oldida turgan eng muhim vazifa : Navoiyning lirik qahramonidagi boy ma'naviyatni belgilash, so'ngra lirik qahramonning xarakterini

ochishda shoir tomonidan qo'llangan tipik priyomlarni aniqlash" ekanligini alohida ta'kidlab ko'rsatdi.**(II,7:160).**

Va bu borada barakali ilmiy talqiot ishlari olib bordi. Nihoyat, 1965-yildan boshlab Navoiyning lirikasiga bag'ishlangan "Ustodning san'atxonasida" katta monografik kitobining dastlabki boblarini e'lon qilishga kirishdi. Muallif bu asarida Navoiy she'riy san'atini oziqlantirgan, Sharq klassik lirikasining asosiy mag'zini tashkil etgan "Ilmi aruz", "Ilmi bade'", "Ilmi qofiya" muallif ta'biri bilan aytganda, "bilimlar o'chog'i"ning tarixi, ta'rifi va xususiyatlari haqida mufassal to'xtab, asosiy diqqat-e'tiborni "Ilmi bade'"ga qaratdi.

"Masalaning mag'zi shundaki, - deydi Maqsud Shayxzoda, - Alisher Navoiy o'z poetik ijodini faqat ilhom va tuyg'u omillariga rom qilmasdan, o'z zamonasining adabiyot, qoida va nazariyalariga "Ilmi bade'" usullariga rioya qilib yaratgan. To'la qanoat bilan aytish mumkinki, muallif o'z oldiga qo'ygan murakkab va qiyin ilmiy vazifani bajarishga muvaffaq bo'lolgan.**(II,7:160).**

Maqsud Shayxzoda birinchi bo'lib Navoiyni "G'azal mulkning sultoni" deb ta'riflagan va bu iborani ilmga olib kirgan olimdir. Zahmatkash olim Alisher Navoiyning lirik merosini o'rganar ekan, ulug' shoir - Navoiy o'zining buyuk iste'dodini, asl dahosini bilim, g'ayrat va tajribasini ulug' niyatlar xizmatiga qo'ygani, poeziyani kishilik jamiyatining zaruriy bir ehtiyojiday bilganini e'tirof etib shunday yozadi: "Uning (Navoiyning) zarbulmasalga aylanib ketgan ta'birlari, baytlari, misralari inson, xalq, bashariyat haqidagi g'amxo'rliqi, adolat, insof va to'g'rilik yo'lida olib borgan tinimsiz kurashi bu xassos yurakda naqadar zo'r muhabbat qaynaganiga, bu yorqin manglay miyada naqadar oliy fikrlar va g'oyalar javlon urganiga shohiddir **(II,36:234).**

Darhaqiqat, Alisher Navoiy xalq dardi, xalq qayg'usi bilan yashagan inson. Bo'lmasa u:

Menga qilsa ming jafokim, bir qatra faryod aylaman,

Elga qilsa bir jafokim, ming qatla faryod aylaram -

degan satrni, yoki:

Odamiy ersang demagil odami,

Onikim yo'lq xalq g'amidin g'ami, -
kabi mashhur baytlarni yozib qoldirmas edi.

Maqsud Shayxzoda Alisher Navoiy merosini o'rganar ekan, ulug' shoirning, xalqsevarlik, insonparvarlik, odamiylik, mehr-u sahovat bilan to'lib toshgan qalbi o'tkir tafakkuri, teran falsafasi, shaffof orzularidan hayrat kashf etadi. Navoiy ijodiga berilgan noto'g'ri baholarni, xulosalarni tanqid qilib, asl haqiqatni "g'azal mulkning sultoni"ning o'z qalamiga mansub asarlar bilan isbotlaydi. Chunonchi, Navoiy lirikasida zamondan shikoyat, umidsizlik, tushkunlik kayfiyati kuchli bo'lgan, - degan qarashlarga javoban Maqsud Shayxzoda shunday yozadi: "Shoir, she'rda (so'zda) dard ila so'zni (kuyish, kuyinishni) asosiy unsur deb qabul qilar ekan, shu bilan yig'loqilikni, umidsizlikni targ'ib qilmoqchi bo'ladi, deb hukm chiqarishimiz noto'g'ri bo'lar edi. Basharning, odam avlodining dardi, uning qayg'usi og'ir va musibatli yo'llarni bosib, nuroniy manzilga qarab intilishi, qurbonlar, qirg'inlar va haqsizliklar tufayli o'ksinishi demakdir.

"Ko'ngil shikoyatidan yuz risola yozmishman..." degan shoir hayot va jamiyatning xunuk hodisalaridan dilgir bo'lib, katta ijtimoiy falokatni "ko'ngil risolasi", ya'ni lirik she'rlari orqali izhor qilishga muvaffaq bo'lgandir **(II,36:238)**.

Maqsud Shayxzoda Navoiy she'riyatini so'zlarni ipga tizib, xalqning bahrasi uchun ma'nolar xazinasidan terilgan gavharlar deb biladi va ularni shaklan puxta yuksak mazmunli asar sifatida baholaydi. Ulug' mutafakkir ijodiyotining muxlisi bo'lgan olim uning lirikasiga alohida ixlos va ikrom ko'rsatadi. "Xazoyinul - maoniy"ni obrazli qilib aytganda, bir qalbning tarjimai holi, - deydi. "Bu qalb shunday bir xassos va badavlat yurakligini asrning hech bir hodisasi, zamonaning hech bir muammosi, jamiyatning hech bir voqeasi kishilarning hech bir davrda, sevinchi va orzusi unda iz qoldirmay, uni chetlab o'tib ketolmaganligini ta'kidlaydi. Navoiyning lirik asarlari birinchi navbatda g'azallari, mustahzodlari va qit'alari hali shoir hayotligidayoq katta shuhrat topganini, bu she'rlarning ovozi Turkiston, Hijoz, Nishopur, Isfahon, Ajamiston, Iroq tomonlariga borib yetganini tarixiy manbalar asosida ilmiy dalillab beradi.

Navoiy lirikasini sinchiklab ko'zdan kechirmagan tadqiqotchi bu shoirning deyarli barcha she'rlarida gavdalanayotgan lirik qahramonning bosh xislatini kuzatib boradi va bu xislatni odamzodning qadri uchun kuyinish belgisidan iborat deb biladi. Shuning uchun Navoiy lirikasida basharning baxtini o'ylash har doim asosiy o'rinda turishini qayd etadi. Maqsud Shayxzoda baxt va inson qadri buyuk Alisher Navoiyni butun umr o'ylatgan va kuylatgan ekan, uning lirik qo'shiqlari asrlar va nasrlar osha sevilib o'qilib kelishining sirri asrorini ham shundan deb biladi. Zeroki, inson baxti shunday bir azaliy va abadiy kuydirki, kurrai zaminimizda inson avlodi barqaror bo'lar ekan, bu kuylar davrdan-davrga ko'chib borug'usidir.**(II,36:243).**

Maqsud Shayxzoda Alisher Navoiy lirikasining ba'zi bir poetik usullari haqida ("G'aroyibus-sig'ar" devoni bo'yicha) maxsus izlanish olib borar ekan, devon Sharq mumtoz adabiyotining deyarli barcha lirik janrlarini o'z ichiga olganligini qayd etadi va o'zi e'tirof etgan "Deyarli" so'ziga izoh kiritib, shunday yozadi: "...devonda g'azal, ruboiy, hikmat, marsiya, faxriya, bahoriya, mutoyiba, soqiynoma, fard, qit'a, munojot, na't, tarkibband, tarji'band, murabba, muxammas, musaddas, musamman kabi turlarni ko'rganimiz holda Sharq devonlariga odatda kiritilib turgan qasida yoki madhiya yoxud ithof ruhida (tuhfa tarzida) yozilgan alohida she'rlarni ko'rmaymiz.**(II,36:179).** Shu sabab olim "deyarli" so'zini qo'llagan. Demak, bundan shu narsa ayon bo'layotirki, Shayxzoda har bir fikrini tarozida o'lchab ko'radigan, bir tomonlama, zo'rma-zo'raki tahlillardan yiroq, taxminiy va xayoliy faktlar emas, aniq va ilmiy dalillarga suyanib ish ko'radigan mohir va zukko olim bo'lgan.

Navoiyshunoslikning murakkab masalalaridan biri ulug' shoirning she'riy merosini davrlashtirishdir. Bu masalaga birinchi bo'lib 1940-yillarda navoiyshunos olim Maqsud Shayxzoda e'tibor qilgan. U "Xazoyinul-maoniy"ga kirgan to'rt devon ("G'aroyibus-sig'ar" - Bolalik g'aroyibotlari", "Navodirush-shabob" - Yigitlik nodirliklari", "Badoe'ul-vasot" - "O'rta yosh badialari", "Favoidul-kibor" - "Keksalik foydalari") kishi umri faollariga qarab nomlanganini g'oyat shartli deb

baholagan lirik Maqsud Shayxzoda "Navoiyning lirik qahramoni haqida" degan maqolasida "G'aroyibus-sig'ar"dagi:

Kechti umrum naqdi g'aflat birla nodonlikda, hayf -

Qolg'oni sarf o'ldi anduhu pushaymonlikda hayf. **(II,47:67).**

matlai bilan boshlangan g'azalning birinchi devondan joy olganini, uni aslo bolalikda yozilgan she'rlar sirasiga kiritish mumkin emasligini ta'kidlagan. Shu bilan birga, Maqsud Shayxzoda shoirning "G'aroyibus-alg'or" devoni ustida tadqiqotlar olib borar ekan, bu Devonning asosiy qismini g'azallar tashkil etishini aytib o'tadi.

Navoiy g'azalining asosiy va birinchi xislati, - deb e'tirof qiladi Maqsud Shayxzoda - mantiqiy tarzda tuzilishi, bir momentning ikkinchi momentdan tug'ilib kelishidir. Bu juda muhim bir xislatdir. Chunki bir g'azalnavis shoirlarda she'r, go'zal va alohida baytlardan iborat bo'lib, mexanik ravishda tuzilgani uchun undagi baytlar oldinma-keyin qilib almashtirilsa, o'qigan kishi bu o'zgarishning farqiga yetmasligi ham mumkin... Navoiyda biz boshqa bir xususiyatni ko'ramiz. Fikriy muddaoning butunligi, tasvirda faqat subyektiv hislarning jilvasini emas, obyektiv hayotiy voqealarning eng kichik lirik she'rlarini ham mantiqiy iplar bilan bog'lashni talab qiladi. Buning natijasida g'azalda butunlik, baytlarning bir-biriga tasodifiy emas, mantiqiy munosabatlar bilan bog'langanini ko'ramiz. **(II,50:116).**

Mo'jaz bir g'azalda yaxlit badiiy lavhani yuzaga keltirib, undagi baytlarni boshdan-oxir yagona g'oyaviy maqsad talablariga muvofiq shaklda tuzish-u, hech shubhasiz, shoirdan malaka va mahoratni talab qiladi. Ana shunday malaka va mahorat buyuk mutafakkir Alisher Navoiyda mujassam edi. Bu holatni Maqsud Shayxzoda Navoiyning quyidagi g'azali orqali izohlab beradi:

Yordin ayru ko'ngul mulkidurur sultoni yo'q,

Mulkim sultoni yo'q, jismi dururkim joni yo'q.

Jismdin jonsiz ne hosil, ey musulmonlarkim, ul

Bir qaro tufroqdekdurkim, ul rayhoni yo'q.

Maqsud Shayxzoda g'azalda baytlarning ma'naviy va shakliy bog'lanishiga e'tibor qilinsa, Navoiy lirikasi uchun xarakterli bo'lgan bir xususiyat ko'zga tashlanishini ta'kidlaydi.

I bayt:

a) Yorsiz ko'ngul - rayhonsiz mulk,
Sultonsiz mulk - jonsiz jism.

II bayt:

Jonsiz jism - rayhonsiz tuproq.

III bayt:

Rayhonsiz tuproq - oysiz kecha.

IV bayt:

Oysiz kecha - obihayot chashmasi bo'lmagan qorong'u g'or.

V bayt:

Chashmasiz qorong'u g'or - jannat bog'idan uzoq turgan do'zaxiy

VI bayt:

Jannat bog'idan umidsiz qolgan do'zaxiy - maysiz xumoriy.

VII bayt

Lirik xotima (hajr bilan vasl qarama-qarshiligi)

Bu sxemadan ayondirki, g'azaldagi baytlar fikran, jismonan ham voqean bir-biriga chambarchas bog'langandir. G'azal boshdan-oyoq tashbih bilan, qatorma-qator hayajonli lavhalar bilan borgan sayin taassurotni keskinlashtirib bayon qiladi. Bu tashbihlar bir-birlari bilan shunchalik mantiqiy ravishda bog'liqki, agar masalan, bu g'azalda V baytni II bayt bilan almashtirsangiz, she'rdagi mantiqiy ip uzilib, ma'no buzilib, g'azalning muntazam imorati qulab ketadi. **(II,36:200).**

Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, sevgi va sadoqat, visol ishtiyoqi va hijron izzirobi, vafo va do'stlik, shafqat va marhamat, Vatanga va xalqqa muhabbat, xalqlar do'stligi, insof va adolat, mehnat va ma'rifat, odob va tavoze, himmat va saxovat, halollik va to'g'rilik, shodlik va tabiat ko'rki, shu bilan birga, zulm-istibdoddan nolish, jaholatni fosh etib, badbin yoki hiylakor shayx-zohidlarni tanqid qilish va boshqalar Navoiy lirikasidan masalalar silsilasini tashkil etadi. Bu

masalalar talqinida ulug' shoir va mutafakkir Navoiy ba`zan ziddiyatlarga yo'liqadi, ayrim muammolar oldida lol qoladi. Lekin shunga qaramay, xalqparvarlik, insonning baxt-u saodati uchun kurash va uning kuch-qudratiga, aql-zakovatiga ishonch lirikasida asosiy va yetakchi bo'lib, ayrim ziddiyatlarni yechib beradi. Shuning uchun ham Shayxzoda Navoiyning ichki kechinmalarini lug'at kitobi deydi. Ayni chog'da Navoiyning sevgi lirikasi oshiq va ma`shuqaning ishqiy kayfiyatlari darajasidan yuqori ko'tarilib, keng ijtimoiy-falsafiy mohiyat kasb etishga alohida to'xtaladi. Navoiy sevgi mavzusi orqali hayotga, insonga muhabbatni kuylashini, badbinlik va tarkidunyochilikka qarshi kurashib, yashagan muhitining ayrim illatlarini fosh etishi, olijanob insoniy fazilatlarni targ'ib qilishini tadqiq qiladi va shoir g'azallarini g'oyaviy-mavzuviy jihatdan shartli ravishda uch qismga bo'lgan:

1. Oshiqona g'azallar.
2. Rindona g'azallar.
3. Orifona g'azallar.

1966-yilda yozilgan "G'azal mulkining sultoni" maqolasida shunday deyiladi:

"Alisher Navoiy dunyo adabiyotiga eng ko'p g'azal yaratgan liriklardan hisoblanadi. Lekin to'rt devonni tashkil etayotgan lirik asarlar (90 foizi g'azal)da siz bironta sharoitga moslanish, xushomad ruhida baytlar to'qish, dunyodorlarga ta`zim qilish holatlarini ko'rmaysiz. Navoiy g'azalni vijdoniy burch ma`nosida tushunganidan, jamoatchi bo'lganidan, undagi eng nozik va eng intim sezgilarning ham tagida haqqoniy va mantiqiy bir hodisa yotadi. Bu jihatdan olganimizda uning o'n minglab g'azallari sodiq sipohlardek g'azalxon dilining biron nuqtasini egallab olib hamisha shoir bilan inson o'rtasida magnit qudratiday bir ijodiy rag'bat saqlab turmoqda. Shoirdagi shu nodir qudratni e`tiborga olib, meni uni g'azal mulkining sultoni deb ta`rifladim.

Maqsud Shayxzoda Alisher Navoiyning lirikasidagi badiiyat masalasiga ham alohida e`tibor qiladi. Xususan, badiiy san`atlardan tanosib, tamsil, tashbeh va tazodga alohida to'xtalib, Navoiyning xizmatlarini bir-bir ko'zdan kechirib chiqadi.

Maqsud Shayxzoda tanosib haqida gapirar ekan, uni klassik she`riyatda eng ko'p tanilgan va ko'proq tadbiq etilgan she`riy san`atlardan biri deydi. U ustodning ijodxonasini ko'zdan kechirar ekan, uning to'rtta lirik devoni bo'yicha tanosib san`atining katta bir mavqe ishg'ol qilib kelganini aytadi. Haqiqatan ham, tanosib san`ati lirikaning barcha turlarida muvaffaqiyat bilan tadbiq qilinib kelgan. U ko'pincha g'azalning bir yoki ikki, ba`zan esa uch baytini o'z ichiga oladi va bu bir-ikki bayt doirasida katta chuqur va yaqqol bir g'azalning barcha baytlarini ayni bir tanosib sistemasiga kiritish voqealari kamdan-kam uchraydi va zotan, bunga hojat ham yo'qdir, chunki kamida yetti va ba`zan to'qqiz yoki o'n bir bayt doirasidagi g'azalda hamma so'zlarni va suratlarni jinsdoshlik va monandlik belgisi ostida yig'ib tasvirlash she`rxonni zeriktirgan bo'lar edi.

Tanosib san`ati faqat tabiat manzaralari va kishining ruhiy kayfiyatlari bilan cheklanmasdan, tarixiy hodisalarga yoxud afsonaviy rivoyatlarga ham tadbiq qilinishi mumkin.

Shayxzoda tanosib san`atining ichki qoidalariga to'xtalar ekan, bu qoidalar, bir tomondan, san`atkorga qo'llanma rolini o'ynagan bo'lsa, ikkinchi tomondan, she`rxonlarga she`rni to'g'ri anglashda va hatto ba`zan, ayrim kotiblar yo'l qo'ygan xatolarni tuzatishga imkon yaratib berganligini ta`kidlaydi. Buni isbotlash uchun esa bir vaqtlar eski qo'lyozma-bayozlardan birida yozilgan Navoiyning quyidagi baytini misol keltiradi:

O'qi zaxmin tan aro ul yuz xayoli yorutur,

O'ylakim, Yusuf jamoli ravshan etgay johni.

Birinchi qarashda, bayt to'g'ri va barcha so'zlar jobajo rostga o'xshaydi. Buni M.Shayxzoda quyidagicha izohlaydi: "Yorning "o'qi" tufayli badanimga ochilgan jarohatni uning chehrasining xayoli yoritadi. Yusufning jamoli johni (qorong'u chuqur joyni) ravshan qilganiga o'xshaydi. Baytning shu tarzda talqin etilgan mazmuni fikriy va she`riy jihatlardan hech bir e`tiroz tug'dirmaydiganga o'xshaydi. Vazn va qofiya joyida!.. Lekin "joh" so'zi bizni bir oz o'ylantirib va gumonsiratib qo'yadi" (II,36:25). Chunki yaraning chuqurligi, do'stning go'zal chehrasi bu chuqurlikni yoritishi bir tomonda turibdi, Yusufning husni johni ravshan qilishi

ikkinchi tomonda turibdi. Yusufning kimning hashamatli joyini yoritgan? Bu uchun Shayxzoda Yusuf afsonasini eslash kerakligini aytib o'tadi. Madomiki, bu yerda tanosib san'ati qo'llanilgan ekan, demak, zaxm - yara, jarohatga ikkinchi misrada muqobil va monand suvrat topish kerak! Afsonaga ko'ra, Yusufni akalari quduqqa tashlagan edilar-ku. Quduqni esa, forsha va klassik adabiy tilda "choh" so'zi bilan ifodalaganlar. Demak, bu odatdagi kotib xatosi. Misrani to'g'rilab "joh" o'rniga "choh" deb qo'yilsa, ma'no va lavha - rost va butun chiqadi. Do'st yuzini xotirlash bilan yaraning ichi yorib ketishi (ya'ni og'riqning bosilishi) quduqning Yusuf jamolidan ravshanlanib kelishiga uyg'un keladi va bu - yaxshigina bir tanosibga misol bo'la oladi. Ayni paytda baytda talmeh san'ati ham qo'llanilgandir.

Maqsud Shayxzoda Navoiy ijodida tanosib san'ati qay yo'sinda qo'llanilganligini aytib o'tar ean, badiiy san'atlardan bo'lmish tazodga ham to'xtalib o'tadi:

"Tazod" so'zining arabcha lug'aviy ma'nosi bir-biriga teskari (zid) turgan ikki holatni yo fikrni qarama-qarshi keltirib qo'yish demakdir. Tazod san'atining ta'rifida barcha eski va yangi adabiyotshunoslar hamfikrdirlar desak, yanglishmaymiz. Faqat ayrim nazariyatchilar "tazod" termini o'rniga "mutobaha" (so'zni moslashtirish) atamasini qabul qilsalar-da, bu san'atga berilgan baho va ta'riflarga ixtilof yo'qdir.**(II,36:26)** .

Maqsud Shayxzoda tazod san'ati bobida garchi ona tilida bo'lmasa-da, forsiy nazariy ma'xazlarda ancha qadimdan davom etib kelgan an'analarga ega bo'lgan buyuk Navoiyni bu san'atni ham o'z she'riyatiga tadbiiq etib, yuksak va yaqqol o'rnaklar ko'rsatganini aytib o'tadi. Navoiy tazodlarni soniga qarab emas, sifatiga qarab tejab qo'llaydi va uning tazodlari chuqur hayotiy voqeani, umumiyashtirilgan falsafiy hikmatni izhor etishga xizmat qiladi.

Navoiy tazod san'atining o'nlab variantlarini ijodiy sinab ko'rib, goho ma'naviy holat bilan jismoniy shakl o'rtasida, goho ruhiy-xayoliy ehtimol bilan nozik tuyg'ular o'rtasida va ba'zan mujassam, vazmin maxluqlar bilan ojiz, zaif jonivorlar o'rtasida tazodlar vujudga keltirish bilan o'z muddaosini g'azalxon

zehniga singdirishga muvaffaq bo'ladi. Masalan, zolimlarning mazlumlardan, kuchlilarning kuchsizlardan vuquf topishi (xabar olishi) qay darajada mushkul bir masala ekanini muallif baquvvat ayoniy suvratlarda shunday taqqoslaydi:

Mo'r ayog' ostida o'lgandin qachon topgay vuquf,

Arslonkim, ko'kka chirmashgan g'irivi shavkati.

Darhaqiqat, na`rasi bilan samoni titratayotgan arslon, ayoq ostida qolib nobud bo'lgan chumolining ahvolini bilish mumkinmi?(II,36:280).

Maqsud Shayxzoda Navoiyning g'azallardagina emas, balki lirikaning boshqa janrlarida ham tazod san`atidan jur`at, mahorat bilan keng foydalanganligini e`tirof etadi va buni aniq misollar bilan isbotlab beradi.

"Yuqorida keltirilgan misollardan oshkora bo'ladiki, klassik lirikaning ichki tuzilishida va suvrat yaratish jarayonida tazod san`ati muhim va aktiv rol o'ynagan. Biz uni tanosib san`atidan keyin, ya`ni unga qator qilib qo'yishimizning ham boisi bor.

Bu masalalar bilan shug'ullangan har bir adabiyotchi bu ikki san`atning bir-biriga tamomila qarama-qarshi tamoyillarda qurilayotganini ko'rsatib olish qiyin emas. Darhaqiqat, agar tanosib san`ati voqealar, buyumlar va kayfiyatlar o'rtasida mutanosiblik belgisini shart qilib qo'ygan bo'lsa, tazod san`atida, aksincha, tamomila bir-biriga teskari, muxolif bo'lgan hodisalarni va holatlarni yuzma-yuz keltirish, ularni ro'baro' qilish talab etiladi.(II,36:282).

Xullas, Maqsud Shayxzoda Alisher Navoiy lirik merosini o'rganib shunday xulosalarga keladi:

Alisher Navoiy o'zbek adabiyoti tarixida lirikani yangi mavzu, g'oyaviy mazmun va badiiy san`atkorlik namunalari bilan boyitdi, rivojlantirdi. U lirik asarlarida chin insoniy sevgini kuyladi, kishilarning baxt-saodati uchun qayg'urdi, insof va adolat o'rnatilishini orzu qildi. U kishilarni jamiyat uchun foydali ishlar bilan shug'ullanishga, bilim va kasb-hunar egasi bo'lishga chaqirdi. U lirik turning xilma-xil janrlarida she`rlar bitdi, bu janrlarning takomiliga katta hissa qo'shdi, yangi-yangi obraz va xarakterlar, peyzaj va portretlar yaratdi, insonning murakkab

his-tuyg'usini, ruhiy kechinmalarini mohirlik bilan ifodalab, turli adabiy usul va badiiy til vositalarini qo'lladi.

Maqsud Shayxzoda Hazrat Mir Alisher Navoiy lirikasini shu qadar sinchkovlik bilan chuqur tadqiq qilgan ekan, ilmiy maqolalari, tadqiqotlari bilan navoiyshunosligimizda o'zining katta hissasini qo'shdi.

Maqsud Shayxzoda tomonidan o'z davrida Alisher Navoiy lirikasining mavzu ko'lami, badiiyati, shakliy jihatlari, ichki bog'liqliklari, xullas, bari-barisi juda yaxshi o'rganilgan. Bu o'rganilgan masalalar aniq ilmiy izchillik asosida maqolalarda o'z aksini topgan. Shuning uchun ham bu maqolalar hech qachon o'z qiymatini yo'qotmaydi.

II.02. *Shoirning epik merosiga munosabat*

Alisher Navoiy o'zining adabiy merosi bilan adabiyotimiz tarixini shunday yuksaklikka ko'taradiki, oradan 500 yildan ziyodroq davr ichida bu ulug' mutafakkir ijod maktabidan ta'lim olish, uning chinakam insonparvarlik g'oyalari bilan sug'orilgan mahoratli asarlariga javob aytish qutlug' an'ana tusini olib keldi. Bu borada na yillar va na yo'llar o'rta solgan to'siq g'ov bo'la oldi. Natijada adabiyotimiz tarixining hamma davrlaridan ulug' o'zbek shoirining fidoyi muxbirlari, sadoqatli va iste'dodli shogirdlarini topish mumkinki, ular o'zlarining g'oyaviy-badiiy jihatdan pishiq, nazokatli asarlari bilan badiiy so'z san'ati taraqqiyotiga munosib hissa qo'shib kelganlar.(II,5:137)

Alisher Navoiy ulkan lirik shoirgina bo'lib qolmay, balki shu bilan birga buyuk epik shoir-dostonnavis hamdir. Maqsud Shayxzoda Alisher Navoiyning lirik merosini tadqiq qilish bilan birga, "Xamsa" dostonidagi xususiyatlar, unda aks ettirilgan ilm, oshiqlik, insof, adolat, Vatanga muhabbat g'oyalarini tarannum etadi. Buning uchun qahramonlar ruhiyatini, ma'naviy olamini tadqiq qiladi. Shu bilan birga, Shayxzoda Navoiyning lirik poeziyada katta tajriba to'plab, Movarounnahr, Xuroson va boshqa o'lkalarda keng shuhrat qozongan Navoiy epik asarlari bilan yanada mislsiz katta muvaffaqiyatlarga erishganini aytib o'tadi. Olim Navoiyning "Xamsa"si xususida fikr yuritar ekan, buning o'ziga xos ijodiy an'ana ekanligini

ta'kidlaydi. Binobarin, Nizomiy boshlagan bu an'anaga barcha bardosh berolmagani, faqat uch shoir: forsigo'y ulug' hind shoiri Xusrav Dehlaviy (1253-1325), ulug' tojik shoiri va mutafakkiri Abdurahmon Jomiy (1414-1492) va buyuk mutafakkir Navoiygina o'sha yuksak qatordan o'rin olishga musharraf bo'lganini qayd etadi.

Alisher Navoiy "Xamsa" dostonini yaratar ekan, u xamsanavis salaflariga ijodiy yondashadi, dostonlarida yashagan tarixiy sharoitning dolzarb masalalarini mavzu qilib oldi, el-yurt uchun muhim ahamiyatga molik masalalar haqida fikr yuritdi, uning aql-zakovati kelajakka parvoz etib insonning istiqboliga katta umid bilan boqdi, hayot haqiqati romantik orzu-armonlari bilan chatishdi, qahramonlari umumbashariy xislatlar bilan kamol topdi, yangi-yangi vaziyat, syujet va kompozitsiya, obraz va xarakterlar yaratdi, badiiy so'z takomilida yangi boblar kashf etdi, o'zbek adabiy tili istiqboli uchun kurash bayrog'ini yuksak ko'tardi.**(II,18:29).**

Maqsud Shayxzodaning A.Navoiyning epik asari - "Xamsa" xususida bildirilgan mulohazalarni biz 1941-yil "O'zbekiston adabiyoti va san'ati"dagi "Navoiyda adlu insof masalasi", "Navoiyning siyosiy qarashlari", "Navoiyda gumanizm", "Navoiyda ayol obrazi", "Xamsada muhabbat problemi", "Navoiy ilmparvar", "Ilmu ma'rifatning jo'shqin kuychisi" kabi maqolalarda ko'rishimiz mumkin.

Navoiy XV asrning ikkinchi yarmida temuriylar imperiyasi tarqalgan, maydalangan bir zamonda yashadi. Bu davr feodal sistemasining siyosiy jihatdan bo'lishuvi, mirzalar va sultonlar o'rtasida uzluksiz qonli urushlarning avj olish bilan xarakteralanadi. Bu hol mamlakatning iqtisodiy, madaniy hayotiga salbiy ta'sir qilar edi. Shu xildagi adolatsiz urushlarning mamlakat va xalq qanchalik salbiy ta'sir qilib turganini Navoiy ko'rdi.

Maqsud Shayxzodaning "Navoiyning siyosiy qarashlari" maqolasini ko'zdan kechirar ekanmiz, u Navoiyning siyosiy idealini ikki yo'l bilan ifodalanganining guvohi bo'lamiz: 1) salbiy shoh obrazini tanqid etish; 2) ijobiy shoh obrazini tashviq qilish.

"Xamsa"dagi dostonlarda biz davlatni idora qilishga noloyiq, zolim, mustabid, nodon, tadbirsiz, maishatparast shohlarni ko'ramiz (Xusrav, Shiruya, Doro, Kashmir podshohi va boshqalar).

Navoiycha podsho xalq kuchiga suyanish kerak, shunday qilmasa u mutlaqo mag'lubiyatga uchraydi", - deb yozadi Shayxzoda. Biz buning isbotini "Sab`ai sayyor" dostonida Jobir to'g'risidagi afsonada shoh Navdarning o'z qo'shinidan ajralib, ovga berilib ketib, bir kiyikning orqasidan chopganini va shu bilan adashib, dushman qo'lga asir tushganini tasvirlaydi va shunday dono xulosa chiqaradi:

Shah tilar bo'lsa shohlik qilmoq,
Sipahidin kerakmas ayrilmoq.
Shahni derlar mipoh birla shoh,
Shoh emasdur yo'q ersa anda sipoh.
Shahga xayl o'lsa fath aning ishidur,
Bir kishi Rustam o'lsa, bir kishidur.

Maqsud Shayxzoda bu satrlarni quyidagicha izohlaydi: "Shoh, shohlik qilaman desa, o'z el-qo'shinidan ayrilmog'i yaramaydi. Podshohni qo'shiniga qarab podshoh deydilar, agar unda qo'shin bo'lmasa u shoh emasdir. Shoh urushda yengsa, bu uning qo'shinining qilgan ishi bo'ladi, bir kishi Rustam pahlavon bo'lsa ham, baribir, bir kishining ishini qiladi.**(II,36:51).**

Maqsud Shayxzoda Navoiyning epik asarlaridagi siyosiy qarashlarni tadqiq qilar ekan, zolim shohlar va maishatparast hukmdorlarni fosh qilishda eng xarakterli bob "Hayrat ul-abror"ning zolim podshohlar to'g'risidagi bobi ekanligini alohida ta'kidlab o'tadi. Bu yerda hukmdorlarning eng qabih tiplari fosh etilishi, bunda shoir qonxo'r hukmdorlarni xalq o'chi bilan qo'rqitib, ularning zulmini mumkin qadar kamaytirmoqchi bo'lganligini aniq misollar bilan izohlab beradi:

Zulm o'zunga fisqdur, ey hushyor,
Gum qil ani, bo'lsa senga hushyor.

(Ey hushyor kishi, qilgan zulming o'zingga zarar keltiradi, agar sening haqiqatan hushing bo'lsa, bu zulmni yo'q qil) **(II,36:51.)**

"Ijobiy shoh obraziga o'tganimizda, - deb aytadi Maqsud Shayxzoda, - Navoiy ularni katta ustalik bilan jozibali ranglarda beradi. Bular bo'lib o'tgan hukmdorlardan ko'ra bo'lishini Navoiy ko'proq xohlagan siyosiy rahbarlarning obrazlaridir. Farhod, Iskandar, Farruh, Sulton Juna, Suhayl, Mehinbonu va boshqalar shular jumlasidandir. Bularning har birida yaxshi jihatlar, go'zal fazilatlar bor. Masalan, Farhod aql, zako, ilm, mardlik, ixtirochilikning, Juna saxovatning, Suhayl shafqatning, Mehinbonu tadbir va chidamning, Farrux do'stlikning porloq timsolidirlar. Biz Navoiy dostonlarini ko'zdan kechirganimizda ularning deyarli barchasida shoirning siyosiy qarashlari o'z ifodasini topganini guvohi bo'lamiz. Lekin, shubhasiz, podshoh qanday bo'lishi kerak, degan savolga Navoiy javob beradi.

O'sha davrda temuriylar saltanatida sodir bo'lgan har qanday notinchlik va nizo, avvalo hazrati Navoiyning sa'y-harakatlari bilan barham topgani tarixiy haqiqat ekanligini bilamiz. Xuddi mana shu paytda Navoiy o'zi orzu qilgan shoh obrazini "Saddi Iskandariy" dostonida yurtiga yovuz dushman bostirib kelgan turli millat va elat vakillarining birlashib, yov yo'lga mustahkam devor qurib, unga qarshi kurash olib borishi bejiz emas, albatta. Navoiyning fikricha, Iskanlarning davlat uslubi xalqqa g'amxo'rlik bilan xarakterlanadi.

Maqsud Shayxzodaning ta'kidlashicha, Navoiy podshohlardan talab qilgan jihatlar feodal sharoitidagi hukmdorlarda bo'lishi mumkin emas edi. Garchi ayrim olim va taraqqiyparvar podshohlar o'tgan bo'lsa-da, lekin ular Navoiyning ideal kabi tasvirlagani Iskandarday bo'lishi mumkin emas edi. Shunga qaramay o'sha qonli zamonlarda shohdan olijanob xislatlar talab qilish xalqchil orzu va xayollar bilan bog'langan edi. Bu talablar buyuk adibning insonparvarligi bilan bog'liqdir **(II,36:52).**

Maqsud Shayxzoda Navoiyning insonparvarligi haqida to'xtalar ekan, jumladan shunday deydi: "Insonlik sharafi Navoiy nazarida hamma narsadan yuqori turar edi... Navoiy insonni mavjudotning eng sharaflisi deb hisoblaydi".Navoiy dostonlarining deyarli barchasida insonparvarlik g'oyalari mujassam.

Agar shoir asarlarini varaqlasak, deyarli har sahifasida "xalq", "el", "ulus", "yurt", "raiyat" degan so'zlarning "mehr", "muruvvat", "oqibat", "saxovat", "sadoqat" so'zlari bilan uzviy bog'lanib ketganini ko'ramiz.

Alisher Navoiyning tarix va bashariyat oldidagi umr xizmatlaridan biri shundaki, u adolat tuyg'usini har bir inson, har qaysi xalq va millat intilib yashaydigan oliy mezon darajasiga ko'tardi, odamzotni hayotda adolatni qaror toptirishga uni asrab-avaylashga chorlab o'tdi.

Maqsud Shayxzoda aytganidek: "Biz Navoiyning bashariyatni bir oilaga to'playdigan adolat to'g'risidagi qizg'in xayollarini madaniyatimizga qo'shamiz va shu buyuk vijdon egasini hurmat bilan yod etamiz".(II,36:46),

Darhaqiqat, Navoiyning o'lmas asarlaridagi yurt tinchligi va osoyishtaligi, adl-u insof, xalqlar va millatlar o'rtasidagi do'stlikni ko'klarga ko'taradigan, bu g'oyalarni ustuvor insoniy qadriyatlar sifatida olg'a suradigan fikr va qarashlari biz uchun, ayniqsa qimmatlidir.

Alisher Navoiyni ilm-u ma'rifatning jo'shqin kuychisi deb nomlagan Maqsud Shayxzoda shoirning ilmparvarligini tadqiq qiladi, ya'ni Alisher Navoiy o'z zamonasining eng ma'rifatli kishisi bo'lib, o'sha davrda ma'lum hamma ilm va fanlardan xabardor ekanligini, xurofotga qarshi aqlni, bilimni, muhokamaning qudratini qo'ygan. Navoiy shu bilan birga, ilm-u ma'rifatning charchamas tashviqotchisi ekanligini aniq misollar bilan isbotlab berdi.

Navoiy aql va ilmning g'alabasiga ishonadi va fan ham ma'rifatni kuylaydi.

Maqsud Shayxzoda ushbu maqolasida Alisher Navoiyning ko'p hikmatli misra va baytlari, ko'p ifoda va ta'birlari ilm o'rganishning tashviqiga bag'ishlanganini aytib o'tadi. Xususan, u Navoiy ilm o'rganish yo'lida har qanday uyat va xijolatni yig'ishtirib qo'yish kerak degan fikrini ta'kidlaydi hamda quyidagi misralarini misol keltiradi:

Bilmaganni so'rab o'rgangan olim,

Orlanib so'ramagan o'ziga zolim.

"O'zining ilm va maorifga bo'lgan shu talabini Navoiy "Xamsa"ning badiiy obrazlarida yaqqol gavdalantirgan. Haqiqatan ham Majnun, Farhod, Shopur,

Iskanlar, Qoran, Moniy, Zayd, Layli, Mehinbonu, Shirin va boshqalar shoir, olim, injener, rassom, sarkarda, me`mor (arxitektor), zargar, olima, orifa kishilar sifatida ko'zingiz oldida jonlanadilar.**(II,37:16).**

Buni biz Farhod obrazi misolida ko'rishimiz mumkin. Farhod ilm va hunarni hayot bilan bog'laydi. Kishi o'z ilmi va hunarini olimaning manfaatiga xizmat ettirishi lozim deb hisoblaydi. Bu xususan, Farhodning Armanistondagi faoliyatida ravshan ko'rinadi. Farhod Shirinni izlab Armanistonga boradi. U tog'da kanal qazish uchun nihoyatda qiynalib ishlayotgan minglarcha kishilarni ko'rar ekan:

"Hunarni asrabon netkumdir oxir,

Olib tufroqqamu ketgumdur oxir!",

deb ularga yordam beradi, ularga bosh bo'lib, mo`jizalar ko'rsatadi. Farhod bilimi va hunarini ishga solib, minglarcha kishilarning mehnati va mashaqqatini yengillashtiradi.

Maqsud Shayxzoda Farhod obrazining ilm va hunarli ekanligini izohlash bilan birga, "Layli va Majnun" dostonidagi Majnun obraziga ham alohida to'xtaladi.

"Xamsa"dagi ikkinchi ulug' obraz Majnun ham ilmu fazilatning, ijod va talantning porloq timsoli ekanligini aytib o'tadi. Majnun buyuk shoirdir, u fozil va olim kishidir. Dostonning muhim personajlaridan bittasi bo'lgan Navfal uning to'g'risida shunday deydi:

Xayling aro kasbi ilm qilmish,

Olamda na ilm barcha bilmish.**(II,36:18),**

Maqsud Shayxzoda ilmning qudrat va imkoniyatlariga to'la ishonch, ayniqsa, "Saddi Iskandariy" dostonida yaqqol ko'rinishini aytadi. Iskandar Kashmir yurtiga safar qilganida Kashmir shohi Mallu uni jodugarlik bilan to'xtatmoqchi bo'ladi. Biroq Iskandar olimlarning, faylasuflarning yordami bilan shu joduni ochadi. Chunki Navoiygacha hokim va olim oldida jodu va sehrgarlik hech qanday rol o'ynay olmaydi. Iskandar ilm va ma`rifatning chinakam oshiqiday tasvirlanadi. Keyin u:

Gahi donish ahli bilan o'lturub,

Kutub onda har ilmdin kelturub.

Qayu bahskim, diqqatiga yetib,

Nekim bo'lsa, majhul, ma'lum etib

Shunday qilib, Navoiy buyuk mahorat bilan zo'r qudratini kuylab beradi.**(II,36:18).**

Navoiy ijodining xususan, uning lirik va epik she'riyatining bosh xususiyatlaridan, qimmatli tomonlaridan biri unda ishq-muhabbatning, vafodorlikning kuylanishidir. Navoiyda oshiq va ma'shuq personajlar ijtimoiy foydali kishilardir. Binobarin, bular o'rtasidagi muhabbatning samimiy va fidokorona mazmunda bo'lishi katta ahamiyatga egadir.

Maqsud Shayxzoda Alisher Navoiy ijodida ishq va oshiqlik masalasini tadqiq etar ekan, bu borada asosiy e'tiborni "Farhod va Shirin"dagi Xusrav va Farhod munozarasiga qaratadi. Navoiyning bu munozarani ulug' san'atkorlik bilan ishlaganini qayd etib, misrama-misra munozaraning quyidagicha xulosa chiqarish mumkinligini aytadi: 1) ishq buyuk fidokorlikni talab qiladi; 2) saroyning buzuq muhitiga berilgan kishilar ("joh ahli") samimiy va otashin ishqqa berilmaydilar. 3) shohlarning sevilishiga ko'proq haqlari bor deyish noto'g'ridir (ishq ichra tengdur shoh-u darvesh), 4) sevuvchi kishi nafrat qila bilishi ham kerak, ya'ni bu ishqning to'sqinchilariga qarshi kurashmoq lozimdir; 5) ishqda butunlik shartdir, ya'ni sevilmoq uchun tom ma'nosida bir kishini sevish kerak.**(II,36:71).**

Maqsud Shayxzodaning ta'kidlashicha, Navoiydagi oshiq-ma'shuq obrazlarining birinchi xarakterli xislati ulardagi aynimaydigan vafodir. Navoiy vafosiz kishini hayvondan battar ko'radi.

...Kuyib ul zor bekas motamidin,

Ki hayvon beh vafosiz odamidin

("Farhod va Shirin")

Farhod va Majnun vafodor, oshiq obrazlari bo'lganiday, Shirin va Layli ham o'z olijanob yorlariga munosib, sadoqatli ma'shuqalardir.

Shoir, Farhodning ishqqa moyil bo'lgani uchun ko'ngli ta'sirchan, o'zi tabiatan insonparvar, dardlilarga hamdard, ko'zi yoshlilarga ko'z yoshi to'kuvchi nodir bir vujud ekanini alohida muhabbat bilan ta'riflaydi.

Navoiy tasviricha, Farhodning o'tkir zehni va qobiliyati ishq sababli paydo bo'lgandir. Asardagi Shirinni Navoiy yolg'iz go'zallik timsoli kabi emas, balki eng asl ma'naviy fazilatlar sohibi bir malika sifatida yaratgan Shirinda go'zallik va noziklik, iffat bilan chuqur sevuvchi qalb, jasorat va imon bor. Go'zallik bilan dong'i ketgan Shirin saltanat va mavqe andishalaridan xoli bir shavq ila, sog'lom va chuqur mehr ila Farhodni sevadi. Shirin Farhodni ishi uchun, yuksak insoniy xislatlari uchun sevadi. U sevgisiga xiyonat qilishidan o'limni ortiq ko'radi.

Navoiyning qaysi bir dostonini qo'lga olmaylik, ularda albatta muhabbat mavzui kuylanganligining guvohi bo'lamiz. Buni Maqsud Shayxzoda quyidagicha izohlaydi: "Navoiy ishqning kishi uchun tabiiy va qonuniy bir holat ekanini va bu tuyg'uning qanchalik yuksak bir hissiyot ekanini biladi. U oshiqlarni emas, ishqqa tushunmagan kishilarni badbaxt va tentak deb anglaydi. Shoir "Layli va Majnun" dostonida Majnun ishqining juda oliy bir niyatdan tug'ilganini ko'rsatadi. Majnun jinni emas, balki ishqning fidokor bahodiridir. Qaysni Majnun holiga solgan ishqqa dushman bo'lgan tor tushunchali, kaltafahm va ko'p feodal muhitdir. Haqiqatda esa Majnun o'zining g'alati va g'ayritabiiy xarakterlarida ham oliy g'oyaning va chuqur aqlning rahbarligi ostida harakat qiladi. Majnun sahrolarda go'yo "jinni" bo'lib yurgan paytlarda, Laylining ishqida ajoyib g'azallar yozadi. Bu g'azallarning hamma radif va qofiyalari Layli ismini va uning sifatlarini takrorlaydi.

Umuman, "Layli va Majnun" dostonini o'qib chiqar ekanmiz, Majnun obrazining talqinidan shu narsa ma'lum bo'ladiki, Navoiy ishqni yoqlaydi, u oshiq va ma'shuqlarning tuyg'ularini hurmatlaydi, bu xislatlarning tabiiy bir narsa ekanini isbotlaydi.**(II,36:77).**

Xullas, Navoiyning epik asarlari uslubi lirik asarlari uslubiga nisbatan ancha murakkab bo'lib, bunda bir dostonning yozilishi, o'qilishi, uni yozishdan muallif kuzatgan maqsad boshqasini kiga o'xshamaydi. "Xamsa"dagi "Hayratul-abror" falsafiy-didaktik asar bo'lsa, "Farhod va Shirin" ishqiy-romantik doston,

"Layli va Majnun"da lirik his, hayajon kuchli bo'lsa, "Sab`ai sayyor"ning hikoyatlar qismida xalq ertaklariga xos xususiyatlar ustunlik qiladi. "Saddi Iskandariy"da qahramonlik dostonlarini eslatadi. Bularning hammasida hayotning turli tomonlari, turli ijtimoiy tabaqa vakillari tarixga, afsonalarga, o'sha davr voqea va hodisalariga bog'lab yorqin bo'yoqlarda shoirona ehtiros bilan tasvirlanadi.

Maqsud Shayxzoda o'zining "Xamsa" dostoni bo'yicha olib borgan tadqiqotlarida Navoiy yaratgan har bir obrazni chuqur o'rganadi. Jumladan, "Farhod va Shirin" dostonidagi murakkablik, har tomonlama o'sganlik va ijtimoiy g'oyalarni bir butun qilib birlashtirish ma`nosida Farhod obrazi to'laroq va chuqurroq xarakterga ega ekanligini aytib o'tadi. Maqsud Shayxzoda "Xamsa" dostoni ustida tadqiqotlar olib borar ekan, dostonlarning obrazlari orqali insoniylik va olijanoblik, jasorat va matonat fazilatlarini bugungi kunda ham nafaqat o'zbek xalqi, balki barcha xalqlar uchun ibrat bo'lib, ularni ezgulik va fidoyilik ruhida tarbiyalashga ko'mak bergani va xizmat qilayotganini alohida ta`kidlab o'tadi.

Maqsud Shayxzoda Navoiyning lirik va epik asarlarini tadqiq qilar ekan, Navoiy o'z avlodiga misli ko'rilmagan darajada boy adabiy meros qoldirganligini ijodi juda murakkab, rang-barang ham serohang masala va problemalarga to'ladir. Madomiki, bugungi kunda madaniyatimiz tarixi va xazinasiga kirgizilayotgan durdonalar qatoriga Alisher Navoiyning ham o'lmas misralari, obrazlari, chuqur fikrlari, nozik tuyg'u va sezgilarini ham qo'yish kerak ekan, bizning vazifamiz bu buyuk merosni chuqurroq tekshirish, undagi chinakam qimmatbaho durdonalarni tanlab olib undagi ijtimoiy-tarbiyaviy hamda madaniy sohalarda ijodiy foydalanishdir"(II, 36:29).

Aytish kerakki, bu vazifani Maqsud Shayxzoda chin dildan amalga oshiradi. U Navoiy ijodi ustida tadqiqot olib borar ekan, Navoiyni badiiy jihatdan yangidan kashf etdi. Uning lirik va epik asarlaridagi o'nlab ma`naviy boy va yuksak qahramonlarning obrazlari ustida ilmiy izlanishlar olib bordi. U minglab she`rlarni o'z ichiga olgan "Xazoyinul-maoniy"dagi lirik qahramon - oshiq va ma`shuq kechinmalarini, "Xamsa" dostonlaridagi Farhod, Majnun, Shirin, Layli,

Dilorom, Shopur, Navfal obrazlarini tahlil qilib tadqiqotlari bilan adabiyotshunosligimizda ulkan hissa qo'shdi.

Xullas, Maqsud Shayxzoda Navoiyni lirik va epik asarlaridagi o'nlab ma'naviy boy va yuksak qahramonlarning obrazlarini kashf etganligini aniq misollar bilan isbotlab berdi. Maqsud Shayxzoda o'zining Navoiyga daxldor maqolalari bilan o'zbek navoiyshunosligiga katta hissa qo'shdi.

Xulosa

Olis yulduzlarning nuri ular so'nganidan keyin ham ming-ming yillar mobaynida Ona Yerimizda yog'ilib turar ekan, Maqsud Shayxzoda ham o'zbek adabiyotidagi yorug' yulduzlardan biridir.

Maqsud Shayxzoda shunday shoirlar jumlasidanki, uning ijodi o'rganilgan sayin yana yangidan-yangi o'rganishga loyiq tomonlari tadqiqotchi oldidan chiqaveradi.

Darhaqiqat, buyuk adib g'oyat sermazmun, serbaraka, teran ijodiy izlanishlar yo'lini bosib o'tdi. Uning hayoti jur'atkor ijodiy jarayonlar xazinasidir. Chunki u ijodiy qalam nimalarga qodir ekanligini ajoyib tarzda namoyish etdi. Shoir yaratgan ulkan, ko'p qirrali, boy ijodiyotni, chinakam she'riy xazinasini diqqat bilan ko'zdan kechirgan, o'rgangan har bir kishi bu noyob iste'dod timsolida butun bir olamni, go'zallik dunyosini ko'radi, his etadi, umrini poyoni yo'q tarixiy manbalar, arxiv materiallari, olam-olam qomus va lug'atlar bilan ishlashga, tinimsiz ijod qilishga bag'ishlagan Maqsud Shayxzodaning qomusiy olim va ustoz-ijodkor bo'lib yetganligi sirlarini ko'z oldiga gavdalantira oladi. Bu xazina behad va bepoyondir. U olmos qirralari bilan jilolanadi, aqlarni peshlaydi, fikrga qanot bag'ishlaydi, qalblarni to'lqinlantiradi, ko'zlarni o'tkir qiladi. Maqsud Shayxzoda ijodining yuksak saviyasi, ilmiy mulohazalarining barkamolligi, shu bilan birga, suhbatning shirinligi bilan va ko'nglining ochiqligi bilan ham kitobxonlarda katta muhabbat tug'diradi.

Maqsud Shayxzodaning Navoiy haqidagi o'ylari, xususan, Navoiy she'riyatining poetikasi borasidagi kishini to'lqinlantiruvchi ajoyib fikrlari bizni hayratga soladi. Bizning nazarimizda, Maqsud Shayxzoda Navoiy lirikasi misolida butun bir nafosat olamini ochdi.

Barchaga yaxshi ma'lumki, biz uchun Alisher Navoiy - o'zbek timsoli, o'zlikni anglash timsolidir. Uning ummon qadar bepoyon ijodidan yetti yashardan yetmish yashargacha hamma o'z didi, qiziqishlari, o'z iste'dodiga yarasha bahramand bo'lishi mumkin. Prezidentimiz I.Karimov ta'kidlaganlaridek, "Biz

Navoiyni sevamiz, ardoqlaymiz. Lekin bobomizning ijodiy merosini o'rganishga kelganda, u qadar maqtangulik jihatlarimiz ko'p emas. Navoiyni muhim hayotiy vazifalarni anglab yetish, muammolarga yechim topishda o'zimizga madadkaor bilimimiz kerak. U bitgan asarlarda insonni kamolotga yetkazadigan, yaxshiyomon kunlarda tatiydigan, ko'ngilga xotirjamlik, zavq-shavq, kezi kelganda sokinlik beradigan jihatlar ko'p. Navoiyni ko'proq o'rganish, ko'proq o'qish teran anglash kerak".

Maqsud Shayxzoda Hazrat Navoiyning ijodi bilan, mulohazalari, o'y-fikrlari bilan bizni tanishtirar ekan, uning ruhiy olami, falsafiy qarashlari benihoya keng ko'lamli va rang-barangligini ko'ramiz. Bu fikrimizga uning Navoiy haqida yaratgan tadqiqotlari misol bo'la oladi.

Shunday qilib, malakaviy bitiruv ishida ilgari surilgan fikr-mulohazalarni muxtasar tarzda quyidagicha belgilash mumkin:

- Maqsud Shayxzoda chin ma'noda serqirra ijod sohibi, chunki u katta ijod yo'lini bosib o'tdi. Buyuk adib o'z izlanishlarida yuksak samaralarga erishgan va adabiyotimiz tarixida shoir, olim, dramaturg, publisist, targ'ibotchi va muallim sifatida o'chmas iz qoldirgan insonlardan biridir.

- Maqsud Shayxzoda nafaqat yetuk ijodkor, balki tadqiqotchi hamdir. U adabiyotshunoslikka ham o'zining ulkan hissasini qo'shgan yozuvchi bo'lgan. Shoir o'zbek adabiyotining xalq og'zaki ijodi, qardosh xalqlar adabiyoti, bugungi adabiyot, jahon adabiyotini chuqur o'rgangani holda, adabiyotimizni noyob ilmiy tadqiqotlari, yuksak saviyali adabiy-tanqidiy tekshirishlari, badiiy publisistik maqolalari va ajoyib tarjima asarlari bilan boyitgan.

- Maqsud Shayxzoda mumtoz adabiyot tadqiqotchisi bo'lgan. U Sharq adabiyoti tarixi masalalari, ularning xususiyatlari, Nizomiy, Bobur, Furqat, Muqimiylarning mahoratini o'rgangan. Bu siymolarning o'zbek mumtoz adabiyoti xazinasiga qo'shgan bebaho hissalarini, o'tmish madaniy-adabiy hayotdagi roli va o'rni haqida chuqur ilmiy tadqiqotlar olib borib, ularning o'lmas merosi zamonamiz uchun naqadar zarur ekanligini o'tkir idroki, teran falsafiy tahlillari bilan isbotlab bergan.

- Alisher Navoiy ijodini o'rganishga uzoq yillar va ko'p mehnat sarflagan Maqsud Shayxzoda, Navoiy ijodi yuzasidan chuqur tadqiqotlar olib borgan. Olim Navoiyning lirik hamda epik merosini, shoirning ijtimoiy-siyosiy, falsafiy qarashlari, ijodining badiiy xususiyatlari to'g'risida ilmiy tadqiqotlar olib borib navoiyshunosligimizning rivojiga o'zining ulkan hissasini qo'shgan.

Xullas, Maqsud Shayxzoda o'ta teran bilimli va donishmand adabiyotshunos edi. U Nizomiy va Navoiy, Lutfiy va Jomiy, Pushkin va Tolstoy, Gorkiy va Mayakovskiy merosini sidqidildan sevardi va ardoqlardi. U o'zining chuqur ilmiy tadqiqotlari bilan adabiyotshunosligimiz, madaniyatimiz tarixida, xalqimiz qalbida o'chmas iz qoldirib ketdi. Shoir she'rlarining birida o'z xalqiga, vatandoshlariga murojaat qilib shunday degan edi:

Yo'q, men o'lgan emasman! Yo'q, men o'lgan emasman!

Umrin buyuk piyola, hali to'lgan emasman,

Men yashayman bolamda, ekib qo'ygan dalamda!

Dami sinmas qilichda, uchi o'chmas qalamda!

Bu hayajonli satrlar haqli ravishda otashin shoirning o'z hayotiga, uning ijodiga to'la taalluqlidir. Haqiqatan ham, shoirning umri, ijodi - buyuk piyola. Buloqdan suv olganing bilan unda suv kamaymaganday, Maqsud Shayxzodaning ijod piyolasi yuz yil, yuz yil ijod qilsa ham to'lmas edi. Uning ijodiy rejalari, orzulari, "yozuvchining fikrini va dilini hamisha yashnatuvchi o'lmas hamrohlari" ko'p edi. Maqsud Shayxzoda ijodi - uning yuragi, hayoti doimo kuy istar, kuylab turar, qalam istar, yaratish zavqi bilan hayot edi.**(II, 30:37).**

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

I. Ijtimoiy, siyosiy va metodologik adabiyotlar

1. Каримов И.А. Сўз боши. Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар. Т.: Ўзбекистон, 2000.
2. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. Тошкент: Маънавият, 2008, 83-б.
3. Karimov I.A. Barkamol avlod - O`zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.: "O`zbekiston", 1998. 64 b.
4. Karimov I.A. "Barkamol avlod orzusi". T., "Sharq". 1999 y
5. Karimov I.A. O`zbekiston XXI asrga intilmoqda. T.: O`zbekiston, 2000 .
6. Karimov I.A. Donishmand halqimizning mustahkam irodasiga ishonaman. T.: O`zbekiston, 2000.

II. Ilmiy risola, monografiya, o'quv qo'llanma, darsliklar

1. Акрамов Б. Фасоҳат мулкининг соҳибқирони. Т.: Ўзбекистон, 1991.
2. Абдуғафуров А. Шеърят саройи // Халқ сўзи, 2001, № 170
3. Бобоев А. Улуғлари эъзозланган юрт заволи кўрмагай // Халқ сўзи, 2001, № 170.
4. Воҳидов Р. Навоий барҳаёт. Т.: Фан, 1991.
5. Воҳидов Р. Алишер Навоийнинг ижод мактаби. Б.: Бухоро, 1994 .
6. Воҳидов Р. Навоийнинг икки дурдонаси. Т.: Фан, 1992.
7. Зокиров М. М. Шайхзода Т.: Ғафур Ғулом, 1969.
8. Зокиров М. Чинакам куйчи ҳеч вақт ўлмайди // Фан ва турмуш, 1988, № 11.
9. Исмоқов Й. Икки жаҳон халқига ҳайрат // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 2001, № 7.

- 10 Йўлдошев Қ. Йилларнинг саломин йилларга элтиб // Ўзбекистон Адабиёти ва санъати, 1998.
11. Каримов И. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. Т.: Шарқ, 1998.
12. Каримов И. Адолатли жамият сари. Т.: Ўзбекистон, 1998.
13. Камалак. Адабий-танқидий йиллик тўплам. Т.: Ёш гвардия, 1990.
14. Каримов И. А. Навоий ёдгорлик мажмуасининг очилишига бағишлаб тантанали маросимга сўзланган нутқ // Халқ сўзи, 2001 й 25 август.
15. Комилов Н. Ҳар байти ҳикматли бир китоб // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 2001, № 7.
16. Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. Т.: Ўқитувчи, 1976.
17. Маллаев Н. ва бошқалар. Ўзбек адабиёти тарихи. Т.: Ўқитувчи, 1986.
18. Маллаев Н. Генерал шоир ва мутафаккир. Т.: Фа н, 1968.
19. Махмуд М. Шайхзоданинг сўнги илхоми // Кўзгу, 1995 24 август.
20. Мирвашев С. Ўзбек адиблари. Т.: Фан, 1993.
21. Мусурмонова О. Манавий қадриятлар ва ёшлар тарбияси. Т.: Ўқитувчи, 1996.
22. Навоий замондошлари хотирасида. Т.: Ғафур Ғулом, 1986.
23. Навоий. Ҳамса. Т.: 1960.
24. Навоий. Маҳбуб - ул қулуб. Т.: 1939 .
25. Навоий ва адабий таъ сир масалалари. Т.: Фан, 1968.
26. А Навоийнинг адабий маҳорати масалалари, мақолалар тўплами. Т.: Фан, 1993.
27. Навоий асарлари луғати.
28. Насиров ва Ўзбек классик шерияти жанрлари. Т.: Ўқитувчи, 1979 .
29. Ойбек. М А Т. 13-том. Т.: Фан, 1979.
30. Олимжонова Ҳ. Фикр торлари. Т.: КТМК, 1968.
31. Орипов А. Буюк ифтихор // Ўзбекистон адабиёти ва санъати , 2001, № 7
32. Розий Ш. Алмўжам. Душанбе.: Ирфон, 1999.
33. Шайхзода М. 1-том. Т.: Адабиёт ва санъат, 1969.
34. Шайхзода М. 2-том. Т.: Адабиёт ва санъат, 1971.

35. Шайхзода М. 3-том. Т.: Адабиёт ва санъат, 1972.
36. Шайхзода М. 4-том. Т.: Адабиёт ва санъат, 1972.
37. Шайхзода М. 5-том. Т.: Адабиёт ва санъатъ 1973.
38. Шайхзода М. 6-том. Т.: Адабиёт ва санатъ 1973.
39. Шайхзода М. Дунё боқий. Т.: Адабиёт ва санъат, 1988.
40. Максуд Шайхзода замондошлари хотирасида. Т.: Адабиёт ва санат, 1983.
41. Ўзбек адабиёти масалари // мақолалар тўплами // Т.: 1959.
42. Қайюмов А. Алишер Навоий. Т.: Камалак, 1991.
43. Қайюмов А. Фарҳод ва Ширин сирлари. Т.: Адабиёт ва санъат, 1979.
44. Қодиров ва бошқалар. Ўзбек тили ва адабиёти. Т.: Ўқитувчи, 1993.
45. Қудратуллоев Х. Навоийнинг адабий-эстетик олами. Т.: Ғафур Ғулом, 1991.
46. Ғафуров И. Ўртоқ шоир. Т.: Ёш гвардия, 1975.
47. Ҳайитметов А. Навоийхонлик суҳбатлари. Т.: Ўқитувчи, 1993.
48. Ҳайитметов А. Алишер Навоийнинг адабий-танқидий қарашлари Т.: Фан, 1959.
49. Ҳаққул И. Камол эт касбким. Т.: Чўлпон, 1991.
50. Ҳаққул И. Абдиқат фарзандлари. Т.: Ёш гавардия, 1990.
51. Ҳаққул И. Занжирбанд шеър. Т.: Юлдузча, 1987.
52. Ҳаққул И. Ирфон ва Идрок. Т.: Маънавият, 1998.
53. Ҳожиаҳмедов А. Мумтоз бадиият малоҳати. Т.: Шарқ, 1999.

III. Internet saytlari:

1. w.w.w. ref.uz.
2. w.w.w. ziyonet uz.
3. w.w.w. literature.uz.
4. w.w.w ziyouz.com
5. <http://www.referat.uz/>

6. <http://www.ziynet.uz/>

12 125 ta so'z